

POSTDA



Gazeta 1930-yil 12-maydan
chiqa boshlagan

НА ПОСТУ ★ AT THE POST

O'zbekiston Respublikasi
Ichki ishlar vazirligi nashri

KELAJAKKA G'AMXO'RLIK



QORAQALPOG'ISTON

Davlatimiz rahbarining tashabbusi bilan haftaning payshanba kuni **«Yoshlar kuni»** deb e'lon qilingani yoshlarning muammolarini o'rganish va hal etish, tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash, ta'lim, sport, bandlik va tadbirkorlik sohalarida yanada keng imkoniyatlar yaratilishiga xizmat qilmoqda. Bu borada mamlakatimiz ichki ishlar organlari tomonidan ham e'tiborga molik ishlar amalga oshirilmoqda.

Qoraqalpog'iston Respublikasi Ichki ishlar vaziri, polkovnik Baxtiyar Torebekov Chimboy tumanida istiqomat qiluvchi kam ta'minlangan, yordamga muhtoj, nogironligi bor fuqarolarning uylariga borib, yashash sharoiti bilan tanishdi. So'ng yoshlar bilan uchrashuv o'tkazdi. Ularning muammolarini hal etish yuzasidan mutasaddilarga topshiriqlar berildi.

Qashqadaryo viloyatida esa shu paytgacha qadar og'ir toifadagi 182 nafar yoshlar bilan uchrashuvlar o'tkazilib, ularning muammolari tinglandi. O'nlab yigit-qizlarning yashash sharoiti, muammolari o'rganildi. Ichki ishlar organlari hisobida turgan 140 nafar ishsiz yosh uchun mehnat yarmarkalari tashkil etildi. Bundan tashqari, 97 ta mahallada mini futbol, 51 ta hududda voleybol, shuningdek, 43 marta boshqa sport turlari bo'yicha musobaqalar uyushtirildi. Viloyat IIB sohaviy xizmatlari o'tkazgan ko'rgazmalar ham yoshlarda katta qiziqish uyg'otdi.

Ichki ishlar organlari tomonidan yoshlar bilan ishlash, ularning muammolarini hal qilish hamda bo'sh vaqtlarini mazmunli o'tkazishga qaratilgan ishlar izchil davom ettirilmoqda.

Hududlarda o'tkazilayotgan tadbirlar haqidagi suratli lavhalar bilan gazetam-izning 24-sahifasida tanishishingiz mumkin.



QASHQADARYO

Anjuman

INNOVATSION RIVOJLANISH ASOSI



Kelajakni zamonaviy bilimlarni egallagan barkamol avlod yaratadi. Bugun yurtimizda yoshlarning ta'lim-tarbiyasiga qaratilayotgan e'tibor zahirida shunday ezgu maqsad mujassam. Shu o'rinda IIV Ixtisoslashtirilgan maktab-internatida o'quv jarayonlarining samaradorligi bilan birga, PhD ilmiy darajasiga ega bo'lgan ustozlar sonini oshirish strategik maqsad sifatida belgilanganligini ta'kidlash joizdir.

Maktab-internatida «Science and Innovation» xalqaro ilmiy jurnali bilan hamkorlikda o'tkazilgan «Zamonaviy ta'lim tizimida innovatsion rivojlanish va yangi avlod kompetensiyalari» mavzusida xalqaro ilmiy-amaliy anjuman zamonaviy ta'lim va ilmiy izlanishning debochasi bo'ldi deyish mumkin.

Tadbirida respublika ta'lim tizimiga kompetensiyaviy yondashuvni izchil joriy qilish, fanlarni o'qitishda ilg'or pedagogik tajribalar va inno-

vatsion texnologiyalarni keng tatbiq qilish, ta'lim jarayonini raqamlashtirish hamda STEAM va fanlararo integratsiya asosida ta'lim oluvchilarning zamonaviy bilim, ko'nikma va malakalarini rivojlantirish masalalari ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan muhokama qilindi.

Shuningdek, konferensiyada ta'lim sifatini oshirishga xizmat qiluvchi interfaol metodlar va baholashning zamonaviy shakllarini takomillashtirish, raqamli ta'lim platformalari va

axborot texnologiyalaridan samarali foydalanish, tanqidiy, ijodiy, kommunikativ hamda ijtimoiy-emotsional kompetensiyalarni rivojlantirish, jumladan, ixtisoslashtirilgan va oliy ta'lim muassasalarida, huquqiy ta'limda kompetensiyaviy yondashuv va raqamli transformatsiya bo'yicha ilg'or tajribalarni umumlashtirish hamda ommalashtirish xususida so'z yuritildi.

Sumbuloy SAIDOVA,
IIV Ixtisoslashtirilgan maktab-internati o'qituvchisi.

Kechirimlilik

INSONPARVARLIK
NAMUNASI

Inson qadri ulug'langan, adolat ustuvor bo'lgan jamiyatda ezgulik va mehr-oqibat kabi fazilatlar doimo qadrlanadi. Kechirimlilik esa ana shu yuksak fazilatlarining eng oliy ko'rinishlaridan biri hisoblanadi. Chunki inson xatodan xoli emas. U o'z qilmishiga iqror bo'lib, tuzalish yo'liga o'tganida, jamiyatning unga qo'l cho'zishi, ishonch bildirishi esa yuksak insonparvarlik namunasidir.

Navro'z ayyomi arafasida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan imzolangan «Jazo muddatini o'tayotgan, qilmishiga chin ko'ngildan pushaymon bo'lgan va tuzalish yo'liga qat'iy o'tgan bir guruh shaxslarni afv etish to'g'risida»gi farmon yurtimizda insonparvarlik siyosati izchil amalga oshirilayotganining yana bir yorqin isboti bo'ldi.

Mazkur farmonga muvofiq, afv etilgan 392 nafar shaxsning 223 nafari asosiy jazodan to'liq ozod etildi, 82 nafari jazoni o'tashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilindi, 34 nafarining ozodlikdan mahrum etish jazosi yengilroq jazo turi bilan almash-

tirildi. Shuningdek, 53 nafar shaxsga tayinlangan ozodlikdan mahrum etish jazosining muddatlari qisqartirildi.

Bu raqamlar ortida inson taqdiri, umid va ishonch mujassam. Afv – bu faqat huquqiy hujjat emas, balki insonga berilgan imkoniyat, hayotni yangidan boshlash uchun ochilgan eshikdir. Ayniqsa, afv etilganlar orasida yoshlar, ayollar va qariyalarning mavjudligi jamiyatimizda inson taqdiriga befarq qaralmasligini ko'rsatadi. Bu esa davlat siyosatining markazida inson manfaatlarini turganini yana bir bor tasdiqlaydi.

Shahrizod SHOKIROV,
kapitan.

Probatsiya xizmati

MEHNAT YARMARKASI,
MUSOBAQA VA OCHIQ MULOQOT

Shu kunlarda Jizzax viloyati IIB JXX Probatsiya bo'limi hamda uning joylardagi bo'linmalari tomonidan bir qator tadbirlar o'tkazilmoqda.

Xususan, «Xavfsiz va sog'lom yurt» keng qamrovli profilaktik tadbiri davomida Paxtakor tumani IIB JXX probatsiya guruhi nazoratida jazo muddatini o'tayotgan shaxslar bilan uchrashuv o'tkazildi. Uchrashuvda jazo muddatini o'tayotgan shaxslarning muammolari eshittilib, ularni bartaraf etish choralari ko'rildi.

Tadbir doirasida tuman Kambag'allikni qisqartirish va bandlik bo'limi bilan hamkorlikda mehnat yarmarkasi ham tashkil etildi. Unda nazorat ostidagi 2 nafar shaxs doimiy ish o'rniga ega bo'ldi.

«Yoshlar kuni» munosabati bilan viloyat IIB JXX Probatsiya bo'limi nazorati ostidagi yoshlar o'rtasida voleybol bo'yicha viloyat IIB boshlig'i kubogi uchun kechgan har bir o'yinda sportga xos raqobat, jamoaviylik va g'alabaga intilish ruhi yaqqol sezilib turdi.

Yakuniy natijalarga ko'ra, Forish tumani yoshlari birinchi, Paxtakor tumani vakillari ikkinchi, Baxmal tumani jamoasi uchinchi o'rinni egalladi. G'olib va sovrindorlar tashkilotchilar tomonidan munosib rag'batlantirildi.

Musobaqada, shuningdek, 2–4-mart kunlari bo'lib o'tgan

U-15 yosh toifasidagi O'zbekiston chempionatining viloyat bosqichi g'oliblari ham taqdirlandi.

G'allaorol tumani IIBda jinoyat ishlari bo'yicha tuman sudining sayyor sud majlisi o'tkazildi. Unda tuman IIB JXX probatsiya guruhi nazoratida jazo o'tayotgan shaxslardan 10 nafari muddatidan oldin shartli ravishda ozod etildi. Shuningdek, tuman IIB boshlig'i va prokuroriga birlashtirilgan 2 nafar yoshga ham ishonch bildirildi.

Viloyat IIB boshlig'ining birinchi o'rinbosari, polkovnik Farhod To'ychiyev probatsiya nazoratidagi yoshlar bilan uchrashdi.

Ochiq va samimiy muloqot tarzida o'tgan uchrashuvda yoshlarning muammolari, takliflari tinglandi. Shuningdek, qonunlarga hurmat bilan munosabatda bo'lish, to'g'ri yo'lni tanlash, ta'lim olish va kasb-hunar egallash orqali o'z kelajagini barpo etish muhimligi ta'kidlandi.

Yoshlarning tadbirkorlik va kasb-hunar borasidagi takliflari ijroga yo'naltirildi.

Muqaddas SAPAROVA,
o'z muxbirimiz.

Jizzax viloyati.


Tuman IIBda

KOGONLIKLAR QULAYLIKlardan MINNATDOR



Kogon tumani IIBning ma'muriy binosi zamonaviy talablar asosida mukammal ta'mirlanib jihozlandi va yaqinda foydalanishga topshirildi. Shuningdek, aholi eng ko'p murojaat qiladigan migratsiya va fuqarolikni rasmiylashtirish, yo'l harakati xavfsizligi xizmati binosi alohida yangidan qad rostladi. Fuqarolar uchun barcha qulayliklar yaratilgan. Xodimlarning sport bilan muntazam shug'ullanishi uchun mini-futbol maydoni ham qurildi.

Profilaktika katta inspektori erishgan yutuqlar mahalla yetilgining hamjihatligi, ishni to'g'ri tashkil etganidandir. Qolaversa, davlatimiz tomonidan qo'shimcha daromad to-



– Tumanimizdagi 23 ta mahallada 86 ming nafardan ortiq aholi istiqomat qiladi, – deydi tuman IIB boshlig'i, podpolkovnik Azamat Ismailov. – Har kuni bo'limimizga turli masalalarda murojaat qilayotgan fuqarolar talaygina. Bunda sohaviy xizmat xodimlari har bir murojaatga aniqlik va tezkorlik bilan yechim topishga harakat qilishadi.

Mayor Ilhom Xudoyqulov o'n olti yildan beri ichki ishlar organlarida samarali faoliyat ko'rsatib kelmoqda. U bundan besh yil muqaddam «Kogon» mahalla fuqarolar yig'iniga profilaktika inspektori etib biriktirildi. O'sha payti mahallada jinoyat va huquqbuzarlik holatlari oshgan, aholining aksariyati «bekorchixo'ja»lar edi.

– Ishni asosan profilaktik hisobda turuvchi, jinoyat sodir etishga moyil shaxslar, nizoli oilalar, yoshlar va ishsiz fuqarolar bilan jiddiy shug'ullanishdan boshladim, – deydi I. Xudoyqulov. – Ular bilan profilaktik targ'ibot-u tushuntirishlar olib borilgach, ko'pchiligi o'zgardi. Ishsizlar kamaydi, nizoli oilalar deyarli qolmadi. Profilaktik hisobdagi va jinoyat sodir etish-

pish uchun qulayliklar yaratilgani ham aholi farovonligiga omil bo'lmoqda. Birgina o'tgan yilning dekabridan hozirgi kungacha 17 nafar ishsizlar va yoshlarga issiqxona qurilishi uchun imtiyozli kreditlar ajratildi. Ayni damda issiqxonalarda kartoshka ekilgan, bir qismiga hademay bulg'or qalampiri ekishadi.

Mayor G'azanfar Allanazarov 2014-yili IIV Akademiyasini tugatib, tergov sohasida xizmat faoliyatini boshlagan. Besh yildan so'ng esa ekspert-kriminalistika yo'nalishida ishlab kelyapti. U har yili o'nlab

Tuman IIB JXX probatsiya guruhi nazoratida turgan O. Shodiya (ismi o'zgartirildi) axloq tuzatish jazosidan bo'yin tovlagach, jinoyat ishlari bo'yicha tuman sudi tomonidan jazosi og'ir turga almashtirildi. Ammo yashirib yurganligi sababli, 26-yanvar kuni unga nisbatan qidiruv e'lon qilindi. Guruh xodimlari olib borgan surishtiruv ishlari natijasida 5-fevral kuni Kogon shahar hududida ushlanib, IIV huzuridagi

olganlarning deyarli barchasi ishli, kasb-korli va tadbirkorlik bilan shug'ullanib kelishyapti. Olib borilgan profilaktik ishlar natijasida joriy yilning o'tgan bir oyi davomida 6 nafar mahkum tuzalish yo'lga kirganligi bois muddatidan oldin shartli ravishda ozod qilindi.

Afsuski, bu toifadagi hamma shaxslar ham ozodlikni, berilgan imkoniyatni to'g'ri anglab yetavermaydi. Olib borilgan profilaktik suhbatlar, qo'llab-quvvatlashlarga qaramay, qayta jinoyat sodir etishadi. Yoki belgilangan jazoni o'tashdan qasddan bo'yin tovlab kelganlar va o'zini yaxshi tutmaganlar uchrab turibdi. Jazo o'tashdan bo'yin tovlaganligi sababli, 3 nafar shaxs ustidan sudga taqdimnoma kiritildi va ularning jazosi og'ir turdagi jazoga almashtirildi.

Migratsiya va fuqarolikni rasmiylashtirish guruhida ish har doim avjida. Guruh katta inspektori, **kapitan Abram Adizov** ishni to'g'ri tashkil-lashtirib, xodimlaridan muomala madaniyatini birinchi o'ringa qo'yishni talab qiladi.

– Bo'linma tomonidan identifikatsiya kartalari, xorijga chiqish pasportlari berish, yaqin xorij mamlakatlaridan kelgan mehmonlarni va chet ellik sayyohlarni vaqtinchalik ro'yxatga qo'yish bo'yicha keng ko'lamli ishlar olib borilmoqda. Joriy yilning o'tgan davrida 1673 nafar fuqaroga ID-kartalari, 175 kishiga xorijga chiqish pasportlari berildi. Shuningdek, jismoniy imkoniyati cheklangan 4 nafar fuqaroga identifikatsiya kartalari ularning xonadoniga borib topshirildi, – deydi lavhamiz qahramoni. – Pasportchi, safdor M. Ortiqovning aniqlik bilan olib borayotgan ishlari tufayli fuqarolar belgilangan vaqtda kelib, kerakli ma'lumotlarni taqdim etishadi va identifikatsiya kartalarini shu kunning o'zidayoq olishadi.

Mirzoqul AHADOV,
o'z muxbirimiz.

Buxoro viloyati.



jinoyatlarni «issiq izida» fosh etib, jinoyatchilikning oldini olishga munosib hissa qo'shmoqda.

Sodir etilayotgan jinoyatlarni qisqa fursatlar-da fosh etishda katta ekspert boshqa sohaviy xizmat vakillari bilan hamkorlikni yaxshi yo'lga qo'ygan. Joriy yilning o'tgan davri mobaynida tergov-tezkor guruhi

JIED oltinchi mintaqaga qarashli 4-sonli tergov hibsxonasiga joylashtirildi. Bu ishda probatsiya guruhi katta inspektori, **mayor Shuhrat Shodiyev**ning xizmatini alohida e'tirof etsak arziydi.

– Bilib-bilmay jinoyat ko'chasiga kirganlarni to'g'ri hayotga qaytarish hamda qayta jinoyat sodir etilishining oldini olish maqsadida targ'ibot ishlarini kuchaytirganimiz, – deydi u. – Shu maqsadda ochiqda jazo muddatini o'tayotgan shaxslarni ishga joylashtirish, ularning maishiy, ijtimoiy-iqtisodiy muammolarini hal etishga alohida e'tibor qaratyapmiz. Bundan tashqari, nazorat doirasiga tushgan 238 nafar shaxsning har biri puxta o'rganilib, ularning ijtimoiy-iqtisodiy ahvoli, psixologiyasi, jinoyat sodir etilishiga turtki bo'lgan sabab va omillar e'tiborga olinayapti hamda tez-tez profilaktik suhbatlar o'tkazilyapti. Guruhimiz nazoratga

ga moyil shaxslar har bir qing'ir ishning javobi borligini angladi, o'zlariga munosib ish topishdi. Shu bois mahallamiz 2024-yildan buyon «yashil» toifada.

tarkibida voqea joylariga chiqib, 30 ta ekspertiza o'tkazdi va natijasi haqida xulosalar yozdi, 25 marotaba tergov harakatlari-da ishtirok etdi.

Ochiq eshiklar kuni

TASAVVUR BOYIDI, QIZIQISH OSHDI

Navoiy viloyati IIBda o'tkazilgan «Ochiq eshiklar kuni»da akademik litsey o'quvchilari hamda Navoiy davlat universiteti talabalari ishtirok etdi.

Dastavval yoshlar uchun boshqarma hududida maxsus qurol-aslaha va xizmat texnikalari ko'rgazmasi tashkil etildi. Ularga xizmatda qo'llaniladigan zamonaviy qurollar, maxsus vositalar va texnikalarning imkoniyatlari haqida ma'lumotlar berildi. So'ng yoshlar boshqarmaning Navbatchilik qismi hamda Vaziyatlar markazi faoliyati bilan tanishib, murojaatlarni qabul qilish, tezkor ma'lumotlarni qayta ishlash va jamoat xavfsizligini ta'minlash jarayonlari haqida tasavvurga ega bo'lishdi.

Shuningdek, ishtirokchilar boshqarma kutubxonasi va muzeyi faoliyati bilan tanishishdi. Ular muzeydagi ichki ishlar organlari tarixiga oid



nodir eksponatlar, arxiv hujjatlari va xizmat faoliyatiga doir materiallarni katta qiziqish bilan ko'zdan kechirishdi.

Yoshlar Navoiy shahar IIBdagi elektron tirda bo'lib, xodimlar uchun yaratilgan zamonaviy sharoitlar bilan tanishishdi, hatto elektron o'q otish mashg'ulotida o'zlari ham ishtirok etishdi. So'ng viloyat prokuratura-

sining tergov poligonida bo'lib, tergov-surishtiruv jarayonlari va o'quv mashg'ulotlari haqida ma'lumotlar olishdi.

«Ochiq eshiklar kuni» tadbirida ishtirok etganlardan juda mamnunman. Bu kabi uchrashuvlar biz – bo'lajak ichki ishlar organlari xodimlari uchun katta ahamiyatga ega. Chunki biz darslarda olayot-

gan nazariy bilimlarimizning amalda qanday qo'llanilishini o'z ko'zimiz bilan ko'rdik. Boshqarmada xizmat qilayotgan xodimlarning mas'uliyati, intizomi ham bizda katta taassurot qoldirdi. Ayniqsa, maxsus texnika va qurol-aslahalar bilan tanishganimizda, tanlagan kasbimizga bo'lgan qiziqishimiz yanada oshdi, – deydi IIV Navoiy akademik litseyi o'quvchisi Ozodbek Yusupov.

Viloyat prokurori hamda Ichki ishlar boshqarmasi boshlig'i bilan suhbatda o'quvchilar o'zlarini qiziktirgan savollarga javob olib, mulohaza va takliflarini bildirishdi. Payshanba – Yoshlar kuni munosabati bilan o'tkazilgan mazkur tadbir kelajagimiz egalarining huquq-tartibot organlari faoliyati haqidagi tasavvurlarini boyitish, ularda Vatanga xizmat qilish istagini mustahkamlashda muhim ahamiyat kasb etdi, desak, aslo mubolag'a bo'lmaydi.

Mahliyo XOLOVA,
o'z muxbirimiz.

Navoiy viloyati.

Ichki turizm

YAXSHI XIZMAT – KELTIRAR RAG'BAT

Inson ruhiyati har doim go'zallikka, tarixning sirli sahifalariga va ajdodlar merosiga talpinadi. Ayniqsa, yurt tinchligi va osoyishtaligi yo'lida kecha-yu kunduz xizmat qilayotgan soha xodimlari uchun bunday ma'naviy hor-diqning ahamiyati beqiyos.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining ichki turizmni rivojlantirish borasidagi tashabbuslari hayotga tatbiq etilib, Ichki ishlar vazirligi Birlashgan kasaba uyushmasi qo'mitasining tashabbusi bilan Vazirlik markaziy apparatining 100 nafar xodimi uchun insoniyat sivilizatsiyasining beshiklaridan biri



— afsonaviy Samarqand shahriga sayohat tashkil etildi.

Boqiy shaharning moviy gumbazlari, naqshinkor pesh-toqlari va har bir toshida tarix nafasi sezilib turgan qadamjolari mehmonlarni o'zgacha tarovat bilan kutib oldi. Sayohat davomida xodimlar Registon maydonining mahobati, Amir Temur maqbarasining nufuzi va Shohi Zinda majmuasining ilohiy sukunatidan bahramand bo'lishdi.

Bundan tashqari, yangi O'zbekistonning durdonasi bo'lib qad rostlagan Imom Buxoriy majmuasiga tashrif xodimlarda unutilmas taassurotlar qoldirdi. Uning

maydoni 45 gektarni tashkil etadi. Hozir kuniga 65 ming nafar ziyoratchini qabul qilish quvvatiga ega qadamjoda 14 ta moviy gumbaz, 75 metrlik 4 ta minora unga ulug'vor qiyofa bag'ishlab turibdi.

Ko'hna Samarqand bo'ylab o'tgan ushbu sayohat xodimlar

xotirasida yorqin lahzalar va yangi kuch-g'ayrat manbayi bo'lib qolishi shubhasiz. Zero, tarixni anglagan inson kelajakni yanada mas'uliyat bilan barpo etadi.

Abror POYONOV,
katta mutaxassis-muxbir,
katta serjant.



Yuksak mukofot sohiblari

«QUMRABOT»NING SODIQ O'GLONI

Prezidentimizning «Mahalla tizimi xodimlari kuni munosabati bilan bir guruh yurtdoshlarimizni mukofotlash to'g'risida»gi farmoniga muvofiq taqdirlangan fidoyi xodimlar orasida Romitan tumani IIB JXX HPB profilaktika katta inspektori, kapitan Sanjar Ahmedov ham bor. U «Qumrabot» mahalla fuqarolar yig'inida xizmat olib boradi.



– Uzoqroq qarindoshimiz ichki ishlar sohasida ishlardi, unga havas qilib, osoyishtalik posboni bo'lishni orzu qilardim, – deydi Sanjar. – Biroq, ota-onam mening o'zlari kabi o'qituvchi bo'lishimni istashardi. Shu bois Buxoro davlat universitetida tahsil oldim. Ikki yil tumandagi pedagogika kollejida o'quvchilarga saboq berdim. Bir necha marotaba ichki ishlar xodimi bo'lish uchun imtihon-u testlar topshirdim. Har safar balim yetmasdi. Ammo ahdimdan qaytmadim. Uchinchi yili menga omad kulib boqdi. Viloyat IIB JTSB PPX batalyoni safdor xodimi lavozimiga qabul qilindim. Batalyonda yetti yil faoliyat ko'rsatgach, oilaviy sharoitidan kelib chiqib, tuman IIBda xizmatni davom ettirdim.

Dastlab tumandagi «Marziya» mahallasida profilaktika inspektori etib tayinlangan S.Ahmedov qisqa vaqt ichida hududdagi kriminogen vaziyatning barqarorligini mustahkamlashga muvaffaq bo'ldi. Natijada aholining yosh profilaktika inspektoriga bo'lgan ishonchi ortdi. Fuqarolar oilaviy nizolarni, qo'ni-qo'shnilar kelishmovchiliklarini tumanga bormay, shu yerning o'zida hal etadigan bo'ldi. Jinoyat va huquqbuzarlik holatlari qayd etilmadi. Rahbariyat yana katta ishonch bilan uni «Bo-

g'isaydon» mahallasiga profilaktika inspektori etib tayinladi. Bu yerda ham jinoyat va huquqbuzarliklarning oldini olishda ancha faollik ko'rsatdi. Shu bois 2021-yili muddatidan oldin «katta leytenant» unvonini olishga musharraf bo'ldi.

2023-yili Sanjarning yelkasiga yanada katta mas'uliyat yuklandi. U profilaktika katta inspektori lavozimiga o'tkazildi va «Qumrabot» mahalla fuqarolar yig'inida xizmat faoliyatini boshladi. O'shanda hududda jinoyat sodir etilmasa-da, ammo huquqbuzarlik holatlari tez-tez ro'y berib turardi. Ayniqsa, spirtli ichimlik ichib janjal qiladigan shaxslar va nizoli oilalar anchagina edi. Bu esa lavhamiz qahramonidan nihoyatda jiddiy ish olib borishni talab etardi. Profilaktika katta inspektori ishtiyoq bilan ishga kirishdi. Faoliyatini spirtli ichimlikka ruju qo'ygan shaxslarni majburiy davolash muassasalariga yotqizishdan boshladi. Ilgari sudlangan, jinoyat sodir etishga moyil bo'lgan shaxslar hamda nizoli oilalar bilan tez-tez suhbatlashib, profilaktik tadbirlar olib bordi. Sa'y-harakatlar o'z samarasini berib, mahalla «yashil» toifaga o'tdi va jinoyatdan xoli hududga aylandi.

– Keyingi yillarda mahallalarga davlatimiz tomonidan katta e'tibor va

imkoniyat berilayotgani, qolaversa, ichki ishlar organlari xodimlarining xalqqa yaqin bo'lib, mahalladoshlarimizning yaxshi-yomon kunlarida doimo yonida turgani kutilgandan ham yaxshi samara bermoqda, – deydi mahalla raisi Ilyos Sultonov. – Ilgari biror kishi shikoyat bilan kelsa, profilaktika inspektorini izlab qolardik. Endi esa bunga hojat qolmadi. Chunki profilaktika katta inspektori, kapitan Sanjar Ahmedov hamisha o'z ish joyida, biz bilan birga. Fuqarolar xohlagan vaqtida unga o'zlarini qiziqtirgan savol hamda muammolari bilan murojaat qilishlari mumkin. Undagi samimiylilik, odamgarchilik tufayli har bir fuqaro inspektorga yaqin kishisiday suyanadi.

Darhaqiqat, mahallada fuqarolar bilan hamkorlik aloqalarini mustahkamlashga alohida ahamiyat qaratilgan. Natijada hududda istiqomat qiluvchi katta yoshdagi aholining barchasi foydali mehnat bilan shug'ullanishadi. Bu, o'z navbatida, aholi, xususan, yoshlarning ish bilan ta'minlanishida muhim o'rin tutib, hududda jinoyat va huquqbuzarliklar sodir etilishining oldini olishda ham katta ahamiyat kasb etmoqda. Qolaversa, mahalla hududiga 75 ta kuzatuv kamerasi o'rnatilib, 21 ta savdo do'koni va

8 ta korxona qo'riqlash pultiga ulandi. Shuningdek, huquqbuzarlik sodir etish va huquqbuzarliklardan jabrlanish ehtimoli yuqori bo'lgan 42 nafar shaxsga xulosa berilib, muammolari hal etildi.

Ayni paytda mahallada 1254 ta oila istiqomat qiladi. Shulardan 11 tasi notinch oilalar ro'yxatiga olingan edi. Endilikda oilaviy qadriyatlarini mustahkamlash komissiyasi, mahalla raisi I. Sultonov, profilaktika katta inspektori, kapitan S. Ahmedov, xotin-qizlar faoli D. Jabborova, hokim yordamchisi U. Sirojov, yoshlar yetakchisi M. Oripov va ijtimoiy xodim M. Toshqulovalarning sa'y-harakatlari tufayli ahillik hukm surmoqda.

Kapitan Sanjar Ahmedov qaysi mahallada ishlamasin, avvalo, uning faollariga tayanadi, bahamjihatlikda ish olib boradi. Shu bois ham ko'zlagan natijalariga erishib kelyapti. Bundan tashqari, yosh xodimlarga murabbiylik qilib, ko'p yillik xizmati davomida orttirgan tajribalarini o'rgatmoqda. Leytenantlar Nasriddin Rajabov, Hamza Qazoqov, Humoyun Sharofiddinov shular jumlasidandir.

Yurtimizda har bir insonning fidokorona mehnati qadr topib kelmoqda. Kapitan Sanjar Ahmedovning ham xizmat faoliyatida erishayotgan yutuqlari munosib baholanib, «Sodiq xizmatlari uchun» medaliga loyiq topildi.

– Bu mukofotni nafaqat men, balki mahalla faollari xizmatiga berilgan yuqori baho deb bilaman, – deydi u g'ururlanib. – Chunki qanday yutuqqa erishmayin, avvalo, barchasining zamirida men bilan yonma-yon xizmat qilayotgan, qo'llab-quvvatlab turgan mahalladoshlarimning hamda oilamning hissasi katta. Yuksak mukofot meni yanada fidoyilik bilan xizmat qilishga undaydi.

Mirzoqul AHADOV,
o'z muxbirimiz.

Buxoro viloyati.

Oylik doirasida

OQ YO'LNING QORA NIHOYASI

Sahardan to qosh qorayguncha yuzlab yo'lovchilarning manzilini yaqin qiladigan jamoat transporti hamisha ishonch va xavfsizlik ramzi bo'lib kelgan. Afsuski, ba'zan oramizda ana shu ishonchni g'arazli niyatlariga qalqon qilgan kimsalar ham uchrab turadi.

«Xavfsiz va sog'lom yurt» keng ko'lamli tezkor-profilaktik oyiligi doirasida ichki ishlar organlari xodimlari tomonidan navbatdagi og'u «savdogari»ning qilmishi fosh bo'ldi.

Voqea Nurafshon shahrining Bobur ko'chasida sodir bo'ldi. 1985-yilda tug'ilgan fuqaro Laziz Allamov (ism-sharifi o'zgartirildi) kundalik xizmat vazifasini bajarish niqobi ostida o'zi boshqarib kelayotgan avtobusdan jinoiy maqsadda foydalangan. U nafaqat yo'lovchi tashish, balki inson umriga zomin bo'luvchi giyohvandlik vositasini tarqatish bilan ham shug'ullanib kelgan.



Tezkor tadbir davomida haydovchi xizmat avtobusining ichida «xaridor»ga ikki dona polietilen o'ramga joylangan gashish giyohvandlik vositasini 400 ming so'mga sotayotgan vaqtida ashyoviy dalillar bilan qo'lga tushdi. Xodimlar tomonidan o'tkazilgan tekshiruvlarda haydovchining yonidan va avtobus ichidan yana shunday bir necha o'ramdagi giyohvandlik vositalari topildi. Jami 11 ta o'ramga joylangan gashish kelgusida sotish uchun tayyorlab qo'yilgani aniqlanib, protsessual tartibda olib qo'yildi.

Holat yuzasidan jinoyat ishi qo'zg'atilgan. Hozir tergov jarayonlari davom etmoqda.

Abror POYONOV,
katta mutaxassis-muxbir, katta serjant.
Toshkent viloyati.

Фахрийлар — фахримиз

ЭЛ ОСОЙИШТАЛИГИ ЙЎЛИДАГИ САДОҚАТ

Илҳомжон Каримов ёшлигидан тартиб-интизомга асосланган касб эгаларига ҳавас билан қарар, юрт тинчлигини таъминлашга хизмат қилишни қалбан истарди. Ўқувчилик йилларида ниятини отаси Икромжон акага билдирганида, унинг устачилик билан шуғулланиб, эл дуосини олишини хошлаётганини айтди.

Илҳомжон Асака туманидаги техникумда автомобил-созлик йўналишида билим олгач, ота ризолигига эришиш учун устага шогирд тушди. 12 йил давомида ўзи ҳам устага айланиб, ҳатто икки нафар шогирд тайёрлади. Бироқ халқ осойишталигини таъминлашга хизмат қилиш истаги уни тарк этмади. Шу боис у яна отасига мурожаат қилди. Бу гал Икромжон ака ўғлининг қатъиятини кўриб рози бўлди. Фақат бир шарт қўйди: «То пенсияга чиққунча ҳалол хизмат қиласан. Қонунга қарши иш қилмайсан, ноҳақ қарор қабул қилмайсан». Илҳомжон бу насиҳатни умрбод ёдда сақлашга ваъда берди.

1992 йилда Жалақудук тумани ИИБ Қўриқлаш хизматига ишга қабул қилинган Илҳомжон масъулият ва интизомни устувор, деб

билди. Етти йиллик самарали фаолиятдан сўнг уни вилоят ИИБ Йўл ҳаракати хавфсизлиги бўлимига таклиф қилишди.

Йўл ҳаракати хавфсизлигини таъминлаш катта масъулият талаб қилади. Бу соҳада хизмат қилган инсон доимий ҳушёрлик, сабр-тоқат ва тезкорлик билан иш олиб бориши керак. Илҳомжон Каримов ўша йилларни эсларкан, бу касбнинг машаққатли томонларини алоҳида таъкидлайди.

– Хизматимиз осон бўлган, деб айта олмайман, – дейди у. – Айниқса, автоҳалокатлар кўп учрарди. Баъзан одамлар спиртли ичимлик истеъмол қилиб автомобиль бошқаришарди. Бу эса кўплаб кўнгилсиз ҳолатларга сабаб бўларди. Шу боис қоидабузарликларга

қарши курашиш билан бирга, аҳоли ўртасида тушунтириш ишларини ҳам олиб борганмиз.

Илҳомжон Каримов хизмат давомида тажрибали раҳбар ва мураббийлардан кўп нарсга ўрганди. Хотамжон Абдуллаев, Шавкатбек Юнусов, Ринат Гайнуddинов, Олтивой Аскароров каби тажрибали ходимлар унга касб сирларини ўргатди. Улардан олган сабоқ ва маслаҳатлар кейинги фаолиятида мустаҳкам таянч бўлиб хизмат қилди.

Унинг хизмат фаолияти турли синовлар билан боғлиқ бўлди. Айрим вазиятларда ўз ҳаётини хавф остига қўйишига ҳам тўғри келади.

– 2005 йилнинг май ойи эди, – дейди у. – Темир йўл вокзали ҳудудида хизмат қилаётгандим. Бирдан ўқ



овози эшитилди. Аввалига бу ҳарбий қисмдаги ўқув машғулоти бўлса керак, деб ўйладим. Аммо кўп ўтмай хизмат чақируви эълон қилиниб, барчамиз идорага тўпландик. Маълум бўлишича, террористик кучлар бир неча жойга, жумладан, жазони ижро этиш муассасасига ҳам ҳужум қилган экан. Ўша пайтларда уч

ой давомида уйга боролмаганман. Куну тун хизмат қилдик. Лекин бундан асло афсусланмаганман. Чунки бу касбни танларканман, халқ осойишталиги учун, керак бўлса, жонимни ҳам фидо қилишга тайёрман, дея аҳд қилган эдим.

Илҳомжон Каримов 2012 йилда пенсияга кузатилди, бироқ у фаол ҳаётдан четда қолмади. Бугунги кунда тадбиркорлик билан шуғулланиб, ички бозорни сифатли ва хавфсиз озиқ-овқат маҳсулотлари билан таъминлашга ўз ҳиссасини қўшмоқда.

Ички ишлар органларида самарали хизмат қилган инсонлар ўз даврида бетакрор тажриба мактабини яратган. Илҳомжон Каримов ҳам ана шу мактабнинг фидойи ва садоқатли вакилларида бири сифатида бугунги ёш авлод учун ибрат бўлиб келмоқда.

**Саминжон
ҲУСАНЗОДА,
ўз мухбиримиз.**

Андижон вилояти.

Тазйиқ ва зўравонликка қаршимиз

ХОТИН-ҚИЗЛАР — ҲИМОЯДА

Қумқўрғон тумани «Навбаҳор» маҳалласида яшовчи фуқаро Д.У. турмуш ўртоғи билан келишмовчиликлар сабабли бир неча йилдан бери руҳий босим остида яшаб келаётганини маҳалла фаоллари ва профилактика инспекторига маълум қилди. Айтишича, турмуш ўртоғи унга мунтазам равишда таҳдид ва руҳий тазйиқ ўтказиб келган.

Мурожаат асосида маҳалла фуқаролар йиғини, ички ишлар органлари ҳамда хотин-қизлар масалалари бўйича масъуллар томонидан вазият ўрганилди. Оилавий низо ҳақиқатан аёлнинг тинч ва хавфсиз ҳаётига таҳдид солаётгани аниқлангач, амалдаги қонунчиликка мувофиқ, унга ҳимоя ордери расмийлаштирилди.

Аёлларни тазйиқ ва зўравонликдан ҳимоя қилиш, уларни қўллаб-қувватлашда ички ишлар органларида фаолият кўрсатаётган хотин-қизлар масалалари бўйича инспекторлар зиммасига катта масъулият юклатилган. Қумқўрғон тумани ИИБ Ҳуқуқбузарликлар профилактикаси бўлими хотин-қизлар масалалари бўйича инспектори, катта лейтенант Мадина Салаева ҳам тазйиққа учраётган хотин-қизларга амалий ёрдам кўрсатиб келмоқда.



Туманда ҳозир 71 та низоли оила мавжуд бўлиб, улар билан тизимли иш олиб бориляпти. Ҳар бир ҳолат алоҳида ўрганилиб, махсус анкеталар тўлдирилди, профилактик суҳбатлар ташкил этилди. Бундай ёндашув низоларни барвақт аниқлаш ва уларнинг оғир оқибатларга олиб келмаслигини таъминлашга хизмат қилмоқда.

– Жорий йилнинг дастлабки уч ойида 156 нафар аёлга ҳимоя ордери берилгани бу борадаги мурожаатлар жиддий эътибор билан кўриб чиқиладиганини кўрсатади. Шу билан бирга, ҳимоя ордери талабларини бузган шахсларга нисбатан қонунчилик доирасида қатъий чоралар кўрилмоқда. Хусусан, шу

йилнинг ўтган даврида 5 нафар фуқаро маъмурий жавобгарликка тортилди, – дейди катта лейтенант Мадина Салаева.

Айрим ҳолатларда ҳимоя орденининг дастлабки муддати етарли бўлмаслиги ҳам кузатилади. Масалан, тазйиқ ва зўравонлик ҳолатлари бартараф этилмагани сабабли 2 нафар аёлга берилган ҳимоя ордери муддати суд томонидан 6 ой муддатга узайтирилди. Бу жабрланганларнинг хавфсизлигини таъминлашга қаратилган муҳим ҳуқуқий чора ҳисобланади.

Зўравонликка учраган аёлларнинг саломатлиги ва руҳий ҳолатини тиклаш ҳам алоҳида эътибор талаб қилади. Шу мақсадда 156 нафар хо-

тин-қиз тез тиббий хизмат кўрсатиш биносида ташкил этилган «Бирламчи кўмак» хоналарига йўналтирилди. Бу ерда улар учун тиббий кўрик ташкил этилди. Ҳолати оғир 85 нафар аёл эса чуқурлаштирилган тиббий кўриқдан ўтказилиб, қўшимча даволанишга йўналтирилди. Шунингдек, 5 нафар аёл вояга етмаган фарзандлари билан бирга Термиз шаҳридаги Аёлларни реабилитация қилиш ва мослаштириш марказига жойлаштирилди.

Бундан ташқари, 17 нафар аёл «Бирламчи кўмак» хоналарида психолог ва ҳамширалар иштирокида зарур ижтимоий-ҳуқуқий ёрдам олгач, оиласи бағрига қайтарилди. Улар билан кейинги профилактик ишлар олиб бориш ва назоратни таъминлаш вазифаси маҳалла ижтимоий ходимларига юклатилди.

Хотин-қизларнинг ҳуқуқий саводхонлигини ошириш – инспектор фаолиятининг муҳим йўналишларидан бири. Шу боис мунтазам равишда тарғибот тадбирлари ташкил этилиб, аёлларга ўз ҳуқуқ ва эркинликлари, қонун билан белгиланган ҳимоя механизмлари ҳақида тушунчалар берилмоқда.

Ижтимоий фаоллигини ошириш, иқтисодий мустақиллигини таъминлаш мақсадида 14 нафар аёлнинг бандлиги таъминланди. Бу оилавий муаммоларнинг олдини олишда муҳим омил бўлиб хизмат қилмоқда.

**Феруза РАҲМОНҚУЛОВА,
ўз мухбиримиз.**

Сурхондарё вилояти.



Безопасная среда

ДЕЙСТВЕННЫЙ МЕХАНИЗМ



Меры, направленные на формирование безопасной среды в Ташкенте, выходят на качественно новый уровень. Сегодня в основе профилактики правонарушений лежит не только усиленное патрулирование, но и глубокий научный анализ криминогенной ситуации.

Специалисты Академии МВД на системной основе осуществляют деятельность в различных махаллях города. Очередным объектом мониторинга стала махалля «Чарх Камолон – 2» Чиланзарского района. На примере этой территории, где проживает около 5 тысяч человек, отрабатывается многоуровневая модель «столичного опыта» по раннему предупреждению преступности.

Анализ показывает, что большинство деяний (в прошлом году здесь было зафиксировано 7 случаев, в основном кражи и нанесение телесных повреждений) можно предотвращать на ранней стадии. В связи с этим для достижения устойчивого результата внедряется модель,

основанная на следующих принципах: изучение и устранение криминогенных факторов; непрерывное взаимодействие с «махаллинской семеркой»; адресная профилактика; технологический барьер. Так, в ходе обхода 293 домохозяйств выявлены лица группы риска и определены потенциальные «очаги преступности». Параллельно территория оснащается интеллектуальными камерами видеонаблюдения. К охране порядка привлекаются и курсанты Академии, для которых работа в жилых массивах под руководством наставников становится эффективной школой профессионального становления.

Соб. корр.

Грани мастерства

НА ВЪЕЗДЕ В АНДИЖАН...



Когда утренний туман скрывает очертания деревьев и дорожных знаков на въезде в Андижанскую область, на посту ДПС зажигаются сигнальные огни. В это время безопасность движения зависит не только от надежности тормозов автомобилей, но и от зоркого взгляда человека в светоотражающей форме.

Для старшего инспектора 4-й мобильной группы ДПС УБДД УВД Андижанской области старшего сержанта Элёрбека Исаева каждая смена – не просто дежурство, а десятки принятых решений, от которых зависит порядок на трассе.

В ОВД Элёрбек служит с 2008 года. Выпускник Высших курсов по подготовке сержантского состава Академии МВД, он прошел серьезную школу в различных подразделениях. В нынешней должности герой очерка с 2023 года. Навыки, отточенные годами, умение

найти подход к человеку и правильно оценить ситуацию – все это сегодня помогает ему в работе инспектора ДПС.

Коллеги отмечают, что Исаев чувствует ритм дороги. Он видит потенциальную опасность в потоке машин еще до того, как ситуация станет критической. Характерное волнение в голосе или напряжение рук водителя на руле – по этим деталям инспектор понимает, нужна ли человеку помощь или дополнительная проверка. При этом старший сержант убежден: предотвратить нарушение важнее, чем просто констатировать его.

Молодежь — наше будущее

ЛОГИКА УЛИК И ФАКТОВ

В следственном отделении при ОВД города Алмалыка время течет по особому графику. Служебный процесс здесь не прерывается: даже в моменты тишины идет невидимая глазу работа с документами, которую сменяют звонки и оперативные совещания в режиме нон-стоп. В этом ритме уверенно действует старший лейтенант Мирхосил Дехконбоев.



Выпускник Академии МВД М. Дехконбоев несет службу следователем в СО при ОВД города Алмалыка.

– В нашей службе важно иметь ориентир. Я благодарен наставникам – майорам Жавохиру Расултоеву и Умиджону Юсупову. Их опыт помогает мне принимать верные решения в самых запутанных ситуациях, – отмечает офицер.

Недавно в производстве М. Дехконбоева было дело о хищении имущества с местного предприятия «Fata Industries». Преступники действовали расчетливо: объектами кражи стали медный кабель, дорогостоящий сварочный аппарат и другое оборудование.

Следователю предстояло по крупницам собрать доказательную

базу. Анализ улик дал результат: картина преступления была восстановлена. Собранные материалы легли в основу обвинительного заключения. У суда не возникло сомнений в виновности двоих 30-летних мужчин: им назначено соразмерное содеянному наказание.

...Труд следователя не знает пауз. На столе у старшего лейтенанта – материалы нового производства по факту незаконного хранения жителем Алмалыка наркотического средства с целью сбыта. В современных условиях такие дела требуют технологической грамотности, навыков поиска зацепок в зашифрованных мессенджерах.

Соб. корр.

Ташкентская область.

верие народа к людям в погонах.

...Сегодня зона ответственности старшего сержанта Э. Исаева – пост ДПС, расположенный в Бустонском районе на въезде со стороны Ферганской области. Здесь он первым встречает тех, кто въезжает в Андижан или следует транзитом. Когда вы в следующий раз проедете мимо сотрудника в светоотражающей форме, помните: он на посту ради того, чтобы ваш путь был безопасным.

А после смены Элёрбека ждет надежный тыл: супруга Хуршидахон, дочери Хуснияхон и Хадичахон, сыновья Бегали и Бехрузбек. Родители стремятся вырастить детей достойными людьми, передавая им свои главные духовные ценности.

Радик ТУМΠΑРОВ,
соб. корр.

Андижанская область.

KORRUPSIYAGA QARSHI MUROSASIZ KURASHISH – ADOLAT POYDEVORI

Jamiyat taraqqiyotini sekinlashtiradigan, davlat boshqaruviga bo'lgan ishonchni yemirib boradigan korruptsiya nafaqat iqtisodiy yo'qotishlarga, balki ijtimoiy adolatning buzilishiga ham olib keladi. Shu bois bu xavfli illatga qarshi kurash mam-lakatimizda ustuvor vazifalardan biri sifatida belgilab qo'yilgan bo'lib, barcha tizimlarda, ayniqsa, huquqni muhofaza qiluvchi organlar faoliyatida qat'iy choralar ko'rilmoqda.



Joriy yilning dastlabki ikki oyi davomida Andijon viloyati ichki ishlar organlari tomonidan hokimiyat, boshqaruv va jamoat birlashmalari faoliyati tartibiga qarshi qaratilgan jami 83 ta jinoyat aniqlangani buning yaqqol isbotidir. E'tiborlisi, ushbu jinoyatlar-ning 12 tasi guruhlar tomonidan sodir etilgan bo'lib, natijada 99 nafar shaxs jinoiy javobgarlikka tortilgan. Aniqlangan holatlar oqibatida yetkazilgan 5 milliard 960 million so'mdan ortiq zararining 3 milliard 529 million so'mi, ya'ni 65,5 foizi aybdor shaxslardan undirilgani ham tizimli ish olib borilayotganini ko'rsatadi. Bu raqamlar faqat statistika emas, balki har bir noqonuniy harakat jazosiz qolmasligining amaliy ifodasidir.

Shu bilan birga, jinoyat turlari tahlili korruptsiya bilan bog'liq xavflar

hali ham dolzarbligicha qolayotganini ko'rsatadi. Xususan, 8 ta tovlama-chilik va 31 ta firibgarlik holatlari aniqlangani ayrim shaxslar hali hanuz manfaat orttirish maqsadida noqonuniy yo'llarni tanlayotganini anglatadi.

Bu holatni Marhamat tumanida yuz bergan voqea misolida ham ko'rish mumkin. Tuman kadastr tizimi bilan bog'liq masalani «hal qilib berish»ni va'da qilgan shaxs yer maydo-nining toifasini o'zgartirish orqali qa-rorga ta'sir o'tkazishini aytib, evaziga 70 ming AQSH dollari talab qilgan. Kelishuv jarayonida so'ralgan pulning 40 ming AQSH dollari Andijon shah-rida olinayotgan vaqtda huquqni mu-hofaza qiluvchi organlar tomonidan ashyoviy dalillar bilan qo'lga olingan.

Mazkur holat nafaqat jinoyat, balki tizimdagi korruptsiya xavflarning qay darajada jiddiy ekanligiga misoldir. Chunki bunday holatlarda faqat pul emas, balki qonun ustuvorligi, adolat va jamiyat ishonchi savdo obyektiga aylanib qoladi.

Valyuta qimmatliklarining noqonuniy muomalasi bilan bog'liq ho-latlar ham diqqatdan chetda qolmayapti. Joriy yilda 9 ta shunday holat aniqlanib, ular bo'yicha jinoyat ish-lari qo'zg'atilgan. Natijada 38 ming 390 AQSH dollari, 3 500 yevro va 45 800 rubl kabi mablag'lar noqonuniy aylanmadan olingan. Bu raqamlar ortida esa bir haqiqat yotadi: korruptsiyaga qarshi kurash faqat jazo choralari bilan cheklanmasligi kerak. Uning ildizlarini bartaraf etish, aholi

o'rtasida huquqiy madaniyatni oshirish, ochiqlik va shaffoflikni ta'minlash bugungi kunning eng dolzarb vazifalaridandir.

Xulosa qilib aytganda, Andijon viloyatida amalga oshirilayotgan ishlar korruptsiyaga qarshi kurashda murosasiz yondashuv shakllanayotganini ko'rsatadi. Eng muhimi, har bir aniqlangan jinoyat bu tizim tozalana-yotganining belgisi. Agar jamiyatning har bir a'zosi qonunga hurmat bilan yondashsa, noqonuniy yo'llardan voz kechsa, korruptsiyaga qarshi kurash samarasi yanada yuqori bo'ladi. Adolat ustuvor bo'lgan joyda esa taraqqiyot barqaror bo'ladi.

Sanjar JABBOROV,
Andijon viloyati IIB boshlig'i,
polkovnik.

Qisqa satrlarda

Sirdaryo viloyatida o'tkazilgan tezkor tadbirida Majburiy ijro byuroosi Mirzaobod tuman bo'limi 2 nafar davlat ijrochisining noqonuniy harakatiga chek qo'yildi. Shaxsiy boylik orttirishni maqsad qilgan davlat ijrochilari qarzdor fuqarodan ijro ishini tugatish evaziga 20 mln so'm olib, undiruvchi fuqaroga go'yoki qarzdor og'ir sharoitda ekanligini ro'kach qilib, pulning 14 mln so'm qismini berishgan hamda undan 30 mln so'm olganligi va da'vosi yo'qligi to'g'risida tilxat yozdirib olishgan. So'ngra ular qolgan 6 mln so'mni tuman prokuraturasi binosi oldida o'zaro 3 mln so'mdan taqsimlab olgan vaqtlarida ashyoviy dalillar bilan ushlandi.

Qarshi shahridagi mahalla fuqarolar yig'inlaridan birida hokim yordamchisi lavozimida ishlovchi shaxs 1983-yil tug'ilgan fuqaroga 2019-yilda shahar hokimligi tomonidan ijara shartnomasi asosida berilgan davlat zaxirasidagi 35 sotix yer maydonini mansabdor tanishlari orqali xususiy mulk sifatida rasmiylashtirib berish evaziga 1000 AQSH dollari olgan vaqtda qo'lga olindi.

«Hududiy elektr tarmoqlari» AJning «Energosavdo» filiali **Farg'ona bo'linmasi**

muhandisi esa o'z xizmat mavqeyidan foydalanib, O'zbekiston tumanida yashovchi, 1962-yil tug'ilgan fuqaroga tegishli xonadon va xususiy bog'chada elektr energiyasidan noqonuniy foydalanganlik holati bo'yicha rasmiylashtirilgan dalolatnoma yuzasidan hisoblangan jami 1,8 mlrd so'm jarima summasini 210 mln so'mga tushirib berish evaziga 10 ming AQSH dollari talab qiladi. O'tkazilgan tezkor tadbirida, muhandis so'ralgan pul mablag'idan 9 ming AQSH dollarini uchinchi shaxs orqali olgan vaqtda uning noqonuniy harakatiga chek qo'yildi.

«O'zyo'lko'prik» klasteri davlat muassasasi **Qoraqalpog'iston Respublikasi** filiali mansabdor shaxsi xizmat mavqeyidan foydalangan holda, qurilish faoliyati bilan shug'ullanuvchi MCHJga o'zining yuqori lavozimda ishlovchi tanishlari orqali «Beruniy – To'rtko'l» A380-sonli magistral yo'l qurilishi loyihasining 5 kilometrlik ish hajmini olib berish evaziga 10 ming AQSH dollari talab qiladi.

O'tkazilgan tezkor tadbirida ushbu mansabdor shaxs so'ralgan pul mablag'ini MCHJ rahbaridan olgan vaqtda uning noqonuniy harakatiga chek qo'yildi.

Toshkent shahar Favqulodda vaziyatlar Bosh boshqarmasining Yunusobod tuman boshqarmasi Favqulodda vaziyatlar profilaktikasi bo'limi inspektori Olmazor tumanida joylashgan xususiy klinikaning yong'inga qarshi holati yuzasidan vakolatli hamkasblari orqali ijobiy xulosa olib berishni va'da qilib, joriy yilning fevral oyida MCHJ rahbaridan 6,5 mln so'm olgan. Biroq, u turli bahonalar bilan va'dasini bajarmasdan kelganligi sababli, fuqaro undan pullarini qaytarishni talab qilgan. O'tkazilgan tezkor tadbirida, inspektor muqaddam olgan pullarini qaytarib bergan vaqtda ashyoviy dalillar bilan ushlandi.

2025-yilda Jinoyat kodeksining 270-moddasi (taqiqlangan ekinlarni yetishtirish) bilan 1 912 nafar shaxs sudlanib, jinoiy javobgarlikka tortildi. Sudlangan shaxslarning 211 nafariga nisbatan ozodlikdan mahrum qilish, 1 687 nafariga ozodlikdan mahrum qilish bilan bog'liq bo'lmagan jazolar tayinlangan. 14 nafar shaxs shartli hukm qilingan. 4 nafar shaxsga tibbiy yo'sindagi majburlov choralari qo'llanilgan. Ushbu jinoyat turi bilan bog'liq eng ko'p ishlar **Farg'ona, Samarqand, Toshkent, Buxoro va Qashqadaryo viloyatlarida** ko'rilgan.

► Internal tourism

Excellence in service yields its rewards



In line with the initiatives of the President of the republic of Uzbekistan to develop domestic tourism, and at the suggestion of the United trade union committee of the Ministry of internal affairs, a trip was organized for 100 employees of the Ministry's central apparatus to the legendary city of Samarkand – one of the cradles of human civilization.

The guests were welcomed by the unique charm of the eternal city, with its turquoise domes, ornate portals, and historic sites where the breath of history is felt in every stone. During the tour, the employees enjoyed the majesty of Registan square, the prestige of the Amir Temur mausoleum, and the divine tranquility of the Shahi Zinda complex.

Furthermore, a visit to the Imam Bukhari complex, which stands as a masterpiece of the new Uzbekistan, left an unforgettable impression on the staff. Spanning 45 hectares, the site now has the capacity to welcome 65 000 pilgrims daily, with 14 blue domes and four 75-meter minarets lending it a truly grand appearance.

This journey through ancient Samarkand will undoubtedly remain in the memories of the employees as a source of bright moments and renewed energy. Indeed, those who understand history build the future with even greater responsibility.

► Society and Law

Harmony above all

In the Sherobod district, an interagency operational headquarters was established involving the district khokimiyat and partner organizations to prevent crime. Quarterly «roadmaps» were developed for all 48 neighborhoods. According to senior



► Prevention diary

All conveniences for the sake of peace

The administrative building of the Kogon district department of Internal affairs has been renovated and commissioned according to modern standards. Lieutenant colonel Azamat Ismailov, head of the district department of Internal affairs, noted that applications from over 86 000 residents across 23 neighborhoods are being resolved promptly. Thanks to the efforts of major Ilhom Khudoyqulov, the prevention inspector of the «Kogon» neighborhood, the area has been categorized as a «green» (safe) zone. Additionally, senior expert major Ghazanfar Allanazarov is actively contributing to solving crimes in «hot pursuit».

As a result of the work with supervised individuals led by major Shuhrat Shodiyev, senior inspector of the probation group, 6 convicts were released on parole. Under the leadership of captain Abram Adizov, senior



inspector of the migration and citizenship registration group, a streamlined system for issuing ID cards and foreign passports has been established. The dedicated service of these officers serves to ensure tranquility and the rule of law in the district.

► Control and analysis

QUALITY PRODUCTS – A GUARANTEE OF HEALTH

Officers of the quarantine measures provision unit of the Samarkand regional Internal affairs department's public order maintenance service, in cooperation with partner organizations, conducted inspections at the «Eko market» in the Damariq area of Samarkand city. During the event, sellers were provided with recommendations regarding product storage and personal hygiene rules. During the inspections, 25 kg of marinated meat, 18 kg of dairy products, 15 kg of oil, 25 kg of fish, 15 kg of salads, and 80 eggs were found unfit for consumption, removed from sale, and destroyed in accordance with established procedures. These measures are aimed at protecting public health and preventing the sale of low-quality products.



lieutenant Muhiddin Ziyoyev, senior inspector of the Organizational-analytical group of the district Internal affairs department's prevention service, the living conditions of 107 former offenders were reviewed, with 14 of them being employed. Additionally, the individual problems of 785 out of 2 057 citizens registered as social prevention objects were addressed.

To enhance security, 48 surveillance cameras were installed across all neighborhoods and integrated into the «Safe City» system. During the «Blade» (Tig') operation, 86 sharp objects were seized, and 11 individuals were sent for medical treatment. Fifty-four preventive raids were conducted among youth, and 95 protection orders were issued to prevent domestic violence. Cybersecurity awareness campaigns and targeted measures in the «Kattabog'» neighborhood demonstrate that the «Chilonzor experience» is yielding effective results in Sherobod.

► Crime watch

The dark end of a fair path

Public transport, which shortens the journey for hundreds of passengers from dawn until dusk, has always been a symbol of trust and safety. Unfortunately, there are individuals among us who use this trust as a shield for their sinister intentions.

Recently, as part of an ongoing enforcement month, internal affairs officers exposed the activities of yet another «merchant» of poison.

The incident took place on Babur street in the city of Nurafshan. Citizen Laziz Allamov (name changed), born in 1985, used the bus he managed for criminal purposes under the guise of performing his daily duties. He was engaged not only in transporting passengers but also in distributing narcotics—substances that cost human lives.

During an undercover operation, the driver was caught red-handed inside his service bus while selling two polyethylene packages of hashish to a «buyer» for 400 000 soums. Upon further inspection by officers, several more similar packages of drugs were found on the driver's person and inside the bus. A total of 11 packages of hashish, prepared for future sale, were identified and seized in accordance with procedural regulations.

A criminal case has been initiated regarding the situation. Investigative proceedings are currently ongoing.

Translated by
Munavvar RASHIDOVA,
docent.

Ma'naviyat va ma'rifat darsi

KITOBDEK BEMINNAT DO'ST BO'LMAS

Inson hayoti davomida ko'plab do'stlar orttiradi. Ular orasida tamagirlari, hasadgo'ylari, qiyin vaziyatlarda xiyonat qiladiganlari ham uchrab turadi. Ammo shunday do'st borki, u hech qachon tama, xiyonat qilmaydi, doimo to'g'ri yo'l ko'rsatadi. Bu — kitobdir.

Mutolaa ruhiy ozuqa olish jara-yonidir. Kitob o'qish kishining dun-yoqarashini kengaytiradi, so'z boy-ligini oshiradi, nutqini ravon qiladi. Yaxshi asar mutolaasi insonni kun-dalik mayda-chuyda tashvishlardan chalg'itadi, ma'naviyatini yuksaltirib, unga xotirjamlik bag'ishlaydi.

Turkigo'y shoir, mutafakkir, davlat arbobi adib Yusuf Xos Hojib o'zining «Qutatg'u bilig» («Saodatga yo'llovchi bilim») asarida shunday yozgan:

**O'quv qut beradi,
bilim sharaf-shon,
Shu ikkov tufayli
ulug'dir inson.**

Buyuk shoir va mutafakkir Ali-sheer Navoiy hazratlari esa kitob beminnat ustoz, bilim va ma'naviy yuksalishga erishishning eng asosiy manbayi ekanligini uqtirganlar.

Sohibqiron bobomiz Amir Temur saltanatida o'z davrining eng katta va boy kutubxonasi hisoblangan «Dor ul-kutub» («Kitoblar uyi») bo'lgan. Ushbu ziyo va ma'rifat maskanidagi noyob kitoblar va qo'lyozma-larni saqlashga, asrab-avay-lashga katta e'tibor berilgan.

Tadqiqotchilarning ta'kidlashi-cha, Samarqanddagi saroy kutub-xonasida o'z davrining yetuk olimlari hisoblangan Abdujabbor Xorazmiy, Shamsuddin Munshiy, Abdullo Lison, Badriddin Ahmad, No'moniddin Xo-razmiy, Xo'ja Afzal, Alouddin Koshiy, Jalol Xokiylar Amir Temur homiyligi-da ilmiy-ijodiy faoliyat olib borgan.



Bugungi kunda O'zbekistonda kitobxonlikni rivojlantirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlari-dan biriga aylandi. Prezidentimiz tomonidan ilgari surilgan 5 ta muhim tashabbusning to'rtinchisi aynan yoshlar ma'naviyatini yuksaltirish, ular o'rtasida kitobxonlikni keng targ'ib qilishga qaratilgan. Ana shu tashabbus asosida «Yosh kitobxon» ko'rik-tanlovlari o'tkazib kelinyapti. Bu tanlov orqali minglab yoshlar kitob mutolaasiga jalb qilindi va g'oliblarga qimmatbaho sovg'alar topshirilmoqda.

Ichki ishlar organlarida ham har yili «Eng yaxshi kitobxon» ko'rik-tanlovini o'tkazish yaxshi an'anaga aylangan, tez-tez kitob yarmakalari tashkil etiladi, kutubxonalar faoliyati yo'lga qo'yilgan.

Shu o'rinda O'z-bekiston Respublika-si Prezidentining joriy yilning 15-yanvaridagi «Kitobxonlik madaniya-tini rivojlantirish va aholi o'rtasida kitob o'qishga qiziqishni oshirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarori xususida alohi-da to'xtalishni istardim. Qarorga ko'ra, Yoshlar ishlari agentligi huzurida Kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish jamg'armasi tashkil etiladi.

Jamg'arma mab-lag'lari hisobidan tan-lov orqali yosh yozuv-chilar uchun grantlar ajratiladi va ularning

asarlari nashr etiladi, bolalar adabiyoti yo'nalishidagi lo-yihalar qo'llab-quvvatlanadi. Eng sara xorijiy adabiyotlar o'zbek tiliga va milliy adabi-yotlarni xorijiy tillarga tarjima qilishda nashrga tayyorlash va chop etish xarajatlarining

Kezi kelganda, qonunchilikka kiritilgan bir muhim o'zgartirish to'g'risida ham to'xtalib o'tish joiz. Unga ko'ra, ozodlikdan mahrum qilish tarzidagi jazoni o'tash davrida mahkumlarda to'g'ri ma'naviy-ax-loqiy qadriyatlarni shakllantirishga qaratilgan, belgilangan tartibda tasdiqlangan adabiyotlar ro'yxatidagi kitoblarni o'qiganligi fakti tasdiqlan-gan taqdirda, mahkumga nisbatan tayinlangan jazoni o'tash muddati qisqartirilishi mumkin. Bunda jazoni o'tash muddati har bir o'qilgan kitob uchun uch kunga, biroq bir yilda ko'-pi bilan o'ttiz kungacha qisqartirilishi ko'zda tutiladi. Umrbod ozodlikdan mahrum qilishga hukm etilganlar bundan mustasno.

Xo'sh, har qanday kitob ham foydalimi? Yo'q, albatta. Iste'mol qilingan sifatsiz taom organizmni zaharlasa, sifatsiz va zararli kitob inson ongini zaharlaydi.

Kitobning zararliligi uning maz-muni, inson ruhiyatiga va ijtimoiy odob-axloq me'yorlariga salbiy ta'siri bilan belgilanadi. Axloqsizlikni, hayo-sizlikni va insoniy qadriyatlarga zid bo'lgan turmush tarzini odatiy hol si-fatida tasvirlaydigan kitoblarni o'qish ham, chop etish ham kerak emas.

Ekstremizm va adovat urug'ini sochuvchi, milliy yoki diniy nizolarni keltirib chiqaruvchi, terrorni oqlov-chi, boshqa millat va elatlarga nis-batan nafrat uyg'otuvchi asarlar ham zararli kitoblar sirasiga kiradi. Ular jamiyatdagi barqarorlikka, totuvlikka, bag'rikenglikka raxna soladi.

Insonni umidsizlikka va hatto o'z joniga qasd qilishga boshlaydigan asarlar ruhiy salomatlikka ziyon yetkazadi. «Ommaviy madaniyat» mahsuli bo'lgan saviyasiz asarlar esa kishiga bilim ham, ma'naviy ozuqa ham bermaydi. Ular faqat vaqttni o'g'iraydi, didni o'ldiradi, fikrlashni cheklab qo'yadi.

Kitob — qalb ko'zgusi. U orqali biz o'zimizni, o'zligimizni anglaymiz, ajdodlar merosini o'rganamiz va kelajakka poydevor qo'yamiz. Agar har bir xonadon ahli foydali kitoblarni o'qisa, ana shu jamiyatda, albatta, taraqqiyot bo'ladi, ma'naviyat yuk-saladi. Shunday ekan, keling, bu beminnat do'st bilan aloqani uzmay-lik. Mutolaa zavqi sizni hech qachon tark etmasin.

**Bobomurod TOSHEV,
o'z muxbirimiz.**



Qoraqalpog
tilidagi matn.



Rus tilidagi
matn.



Tarixga muhrlangan taqdirlar

O'zbek do'ppisini kiygan Gagarin

Har yil o'n ikkinchi aprelda dunyo sivilizatsiyasi tarixidagi eng muhim voqealardan biri bo'lgan insonning kosmosga parvozi bilan bog'liq «Xalqaro kosmonavtika kuni» keng nishonlanadi.

Bu bayram mamlakatimizda ham muntazam nishonlab kelinadi. Sababi, O'zbekiston uchun bu soha begona emas. Ittifoq parchalanishi bilan O'zbekistonning aerokosmik tarmog'i deyarli rivojlanmay qoldi, ammo mamlakat hisobiga kosmosni tadqiq qilish uchun o'ta muhim bo'lgan keng ko'lamli ishlarni g'urur bilan aytib o'tish o'rinlidir. Chkalov nomidagi Toshkent aviatsiya ishlab chiqarish birlashmasida kosmonavtlarni sinash uchun samolyotlar ishlab chiqarildi, Toshkent mashinasozlik byurosida Yerga oy tuprog'ini olib kelgan qurilma yaratildi, Parkent tumanidagi Nevich qishlog'ida Toshkentda ishlab chiqilgan Oyni tadqiq etish uskunalari sinovdan o'tkazildi.

1955-yilda dunyodagi birinchi va eng katta «Boyqo'ng'ir» kosmodromiga asos solingan bo'lib, Qozog'istondagi bu qurilishda yurtdoshlarimiz, jumladan aloqachilar, quruvchilar va boshqa mutaxassislar yuborilgan, qurilish materiallari va oziq-ovqat

ta'minotiga ham o'zbeklar katta hissa qo'shishgan.

O'sha paytda Moskva – Toshkent temiryo'lining mavjudligi kosmodromning qurilishida muhim omil bo'ldi. Kosmodrom xodimlarining hayotini ta'minlash va uni qurish uchun zarur bo'lgan suv ta'minotida ham Sirdaryo daryosining yaqinligi qo'l kelgan edi.

Sayyoramizning birinchi kosmonavti ilk bora «Vostok» nomli kosmik kemada «Boyqo'ng'ir» kosmodromidan yer shari atrofidagi orbital parvozini amalga oshirganidan so'ng, do'stlik va tinchlik missiyasi bilan chet ellarga sayohat qila boshladi. 1961-yil 29-noyabrga o'tar kechasi bordida birinchi kosmonavt bo'lgan Moskvadan Dehliga uchayotgan samolyot Toshkent aeroportida yonilg'i quyish uchun to'xtadi. 1961-yil dekabr oyida esa Yuriy Gagarinning Toshkentda rasmiy va tantanali kutib olish marosimi bo'lib o'tdi. Minglab odamlar birinchi kosmonavtni kutib olish uchun shahar ko'chalariga chiqishdi. Toshkentliklar aeroportdan shahar markazigacha Gagarinining korteji ketayotgan yo'llarga gullar sochishdi.

Yuriy Gagarin 1961-yildan 1968-yilgacha olti marta O'zbekistonga tashrif buyurgan. Samimiy va xushchaqchaq Gagarin bizning quyoshli zaminimizni va uning xalqini juda yaxshi ko'rardi. Birinchi kosmonavt respublika bilan do'stona aloqalarni faol qo'llab-quvvatladi, diyorimizga tashrifi paytida mahalliy aholi bilan suhbatlar qurdi, o'zbek do'ppisida suratga tushdi va turli tantanali tadbirlarda ishtirok etdi.

Birinchi kosmonavt bilan suhbatlashish baxtiga muyassar bo'lganlarning ta'kidlashicha, u nihoyatda kamtarin va do'stona fazilatli odam bo'lgan.

1968-yil 27-martda Yuriy Gagarin harbiy uchuvchi do'sti Vladimir Seregin bilan birga MiG-15UTI o'quvmashq qiruvchi samolyotida parvoz qilayotganda fojiali halok bo'ldi.



Kosmonavt vafot etgach, Rossiyaning Smolensk va mamlakatimizning Jizzax viloyatida ikkita shahar uning sharafiga nomlandi. Bugungi kunda 1974-yilda shahar maqomini olgan Gagarin shahri Mirzacho'l tumanining ma'muriy markazi hisoblanadi.

Shaharning bosh ko'chasi toshkentlik haykaltarosh Leonid Ryabsev tomonidan yaratilgan Gagarin monumenti bilan bezatilgan. Markaziy Osiyodagi eng baland yodgorliklardan biri bo'lgan Gagarin haykali shaharning diqqatga sazovor joyida qad rostlagan. Shuningdek, shaharning 10-sonli maktabida kosmonavtika muzeyi ham tashkil qilindi. Muzey kosmonavtikaning yutuqlari va O'zbekistonning bu sohaga qo'shgan hissasi haqida hikoya qiladi. Unda Sharq mutafakkirlari Mirzo Ulug'bek va Beruniyning koinotni o'zlashtirishdagi o'rniga bag'ishlangan alohida bo'limlari ham bor.

G'ayratulla SHUKUROV,
O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan
madaniyat xodimi.



Tahlil

FAROVON TURMUSH ASOSI – MEHNAT

Oynasi ochiq qoldirilgan mashinadagi qimmatbaho magnitofonga ko'zi tushgan Nodir (ismlar o'zgartirildi)ning niyati buzildi. «Yechib olib sotsam, yaxshigina pul bo'ladi. Shunda bugun ishga chiqmay, dam olardim», – deya kalta o'yladi. U osongina qo'lga kiritgan «o'ljani» tezda pullash maqsadida juftakni rostladi. Biroq vaziyat u o'ylagandek silliq kechmadi, voqea joyiga zudlik bilan yetib kelib, tezkor-qidiruv tadbirlarini olib borgan xodimlar jinoyatni «issiq izida» fosh qilishdi. Oson pul topish payida shu noma'qul ishga qo'l urgan Nodirning ko'zlari qilmishiga yarasha qonuniy chora tayinlanganda ochildi. Buvisining «Bolam, birovniki buyurmaydi», degan so'zlari yodiga tushib, qattiq afsus qildi. Biroq endi kech bo'lgandi...

O'g'rilik keng tarqalgan jinoyat turlaridan biri. Shu bois yurtimizda mazkur turdagi jinoyatlarning holati, dinamikasi va sabablarini ilmiy asosda o'rganish orqali profilaktika tizimini takomillashtirishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

– Mamlakatimizda sodir etilgan o'g'rilik jinoyatlari doimiy ravishda kompleks kriminologik tahlil asosida o'rganib borilmoqda, – deydi O'zbekiston Respublikasi Kriminologiya tadqiqot instituti ilmiy xodimi Shavkat Murzajanov. – Ushbu turdagi jinoyatlarning yillar bo'yicha dinamikasi turli omillar ta'sirida o'zgarib turadi. Xususan, **2021-yilda o'g'riliklar 2020-yilga nisbatan 141,7 foizga oshgan. 2022-yilda esa 22,8 foizlik kamayish kuzatilgan. 2023-yilda ham pasayish davom etib, 2,5 foizni tashkil etgan. Biroq 2024-yilda yana o'sish qayd etilgan va mazkur tendensiya 2025-yilda ham saqlanib, 1,7 foizlik ko'payish qayd etilgan.**

Muqaddam sudlangan shaxslar tomonidan sodir etilgan o'g'rilik jinoyatlari **2024-yilda oshgan bo'lsa-da, 2025-yilda 15,8 foizga kamayib, 1 ming 718 tani tashkil etgan. Shuningdek, ayollar**

tomonidan sodir etilgan o'g'rilik holatlari 2024-yilda o'sgan bo'lsa, 2025-yilda 16,8 foizga kamaygan.

Bu borada ijobiy tendensiyalardan yana biri – voyaga yetmaganlar ishtirokidagi jinoyatlar sonining izchil kamayib borayotganidir. Xususan, ular tomonidan sodir etilgan o'g'riliklar **2024-yilda 9 foizga kamaygan bo'lsa, 2025-yilda yana 4,2 foizga qisqarib, 1 ming 313 ta holat qayd etilgan.**

Quvonarlisi, mazkur yo'nalishdagi ijobiy o'zgarishlar profilaktika ishlarining samara berayotganidan dalolatdir. Endi bevosita o'g'rilik jinoyatlarining kelib chiqish sabablariga to'xtaladigan bo'lsak, bu boradagi tahlillar iqtisodiy qiyinchiliklar, nazoratning yetarli darajada emasligi, huquqiy ong va huquqiy madaniyatning yetarli shakllanmagani hamda ijtimoiy muhit ta'siri bilan bog'liq ekanligini ko'rsatadi. Bundan anglashiladiki, o'g'rilik holatlarining oldini olishda jazo choralarini ko'rish bilan cheklanmaslik, balki aholi bandligini ta'minlash, huquqiy targ'ibot ishlarini kuchaytirish, mahalla va jamoat tashkilotlarida nazorat mexanizmlarini mustahkamlashga e'tibor qaratish

zarur. Qolaversa, jinoyatchilikka qarshi kurashish faqatgina ichki ishlar organlari xodimlarining vazifasi emas, balki hamkorlikda tizimli choralar ko'rishni taqozo etadigan yo'nalishdir.

Shu o'rinda so'nggi yillarda jamoat xavfsizligini ta'minlash sohasiga raqamli texnologiyalar joriy etilishi, xususan, hududlarda «Tezkor boshqaruv markazlari» tashkil etilib, minglab videokuzatuv qurilmalari yagona tizimga integratsiya qilingani, «Tashvish tugmalari» o'rnatilgani nafaqat o'g'rilik, balki boshqa turdagi jinoyatlarni tezkorlikda aniqlash, fosh etish va ularning oldini olish imkoniyatlarini sezilarli darajada oshirayotganini ta'kidlash joiz. Ekspert-kriminalistika sohasida genom ma'lumotlaridan foydalanish amaliyotining yo'lga qo'yilishi hamda zamonaviy laboratoriyalar faoliyatining kengaytirilishi ham jinoyatlarni ochish samaradorligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

So'zimiz so'ngida achchiq va ochiq bir haqiqatni tan olishimiz shart. Hech kim jinoyatchi, aniqrog'i, o'g'ri bo'lib tug'ilmaydi. Balki bu qilmish inson ongiga xuddi ijobiy fazilatlar qanday o'nashsa, shunday yopishadi. Biz yuqorida keltirgan misolda ham Nodir oson yo'l bilan pul topishni o'ylashi bilan xatoga yo'l qo'ydi. Biz tahlillarda keltirgan raqamlar zamiridagi holatlarning har biri shu tariqa inson taqdiriga daxldor. Demakki, har bir odam qo'l urayotgan ishi haqida mulohaza qilishi kerak. Zero, chiroyli, farovon turmush halol mehnat asosiga quriladi. Ota-bobolarimiz «Mehnat, mehnatning tagi rohat», «Mehnatdan kelsa boylik, turmush bo'lar chiroylik» deb bejiz ta'kidlashmagan.

Gulnoza TURG'UNBOYEVA,
o'z muxbirimiz.

ZEHNINGIZNI SINAB
KO'RING

Sohibqiron Amir Temur qaysi sayyoralar tutashganda tug'ilgan?

- A) Mushtariy va Quyosh
- B) Quyosh va Oy
- C) Oy va Mushtariy
- D) Mushtariy va Zuhra

«Temur tuzuklari» qaysi tilga qilingan tarjimai orqali Yevropa tillariga o'g'irilgan?

- A) fors tili
- B) chig'atoy tili
- C) fransuz tili
- D) ispan tili

Temuriylar saltanatining darz ketishini boshlab bergan malika qaysi javobda to'g'ri ko'rsatilgan?

- A) Saroymulkxonim
- B) Xadichabegim
- C) Shodmulk begim
- D) Xonzodabegim

Amir Temur qaysi qishloqda tug'ilgan?

- A) Qorovul
- B) Sayyod
- C) Xo'ja Ilg'or
- D) Yakkabog'



Karantin xizmati

SIFATLI MAHSULOT – SOG'LIQQA KAFOLAT

Oziq-ovqat mahsulotlari xavfsizligini ta'minlash hamda aholi o'rtasida iste'mol madaniyatini oshirish maqsadida Samarqand viloyati IIB JTSB Karantin tadbirlarini ta'minlash bo'linmasi veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish xizmatlari, sog'liqni saqlash hamda boshqa mutasaddi idoralar vakillari bilan hamkorlikda Samarqand shahar Damariq «Eko bozori»da targ'ibot va o'rganish ishlari olib borildi.

Sotuvchilarga tez buziluvchan oziq-ovqatlarni belgilangan haroratda saqlash, shaxsiy gigiyena qoidalariga qat'iy amal qilish, savdo joylarini ozoda saqlash va xaridorlar salomatligini muhofaza qilish bo'yicha tavsiyalar berildi. Shuningdek,



fuqarolarga sifatli va xavfsiz mahsulotlarni tanlash, qadoqlanishi, yorliqlari va veterinariya-sanitariya xulosasi mavjud bo'lishi haqida tushuntirish ishlari olib borildi.

O'rganishlar davomida 25 kg marinadlangan go'sht, 18 kg sut va sut mahsulotlari, 15 kg yog', 25 kg baliq, 15 kg salat, 80 dona tuxum iste'molga yaroqsiz deb topilib, sotuvdan olib qo'yildi va o'rnatilgan tartibda yo'q qilindi.

Mazkur targ'ibot tadbirlari aholi salomatligini himoya qilish, sifatsiz va iste'molga yaroqsiz mahsulotlar savdosining oldini olish hamda sanitariya qoidalariga rioya etilishini ta'minlashga qaratilgan.

Nurmuhammad SOIBNAZAROV,
safdor.

Samarqand viloyati.

Ayol va jamiyat

MATONAT VA MEHR UYG'UNLIGI

Ayol — mehr va matonat timsoli. U oilada farzandlarga mehribon ona, jamiyatda esa fidoyi inson sifatida namoyon bo'ladi. Vatanga xizmat qilish, xalq dardiga quloq tutish va shu bilan birga, oilasini asrab-avaylashdek sharaflı burchlarni uddalay oladigan ayollar borki, ular hayotining har bir jihati ibrat maktabiga aylanadi. Shahrixon tumani IIB Migratsiya va fuqarolikni rasmiylashtirish bo'limi xodimasi, safdor Dilafruz Olimova ham ana shunday ayollar jumlasidandir.

U Shahrixon tumanidagi 12-maktabni tamomlagach, Asaka shahridagi Maishiy xizmat va tadbirkorlik kollejida huquqshunoslik yo'nalishida tahsil oldi. Bugungi kunda esa Andijon davlat universitetining madaniyat va sport yo'nalishida saboq olib, bilimlarini yanada mustahkamlamoqda.

2017-yil noyabr oyida ichki ishlar tizimida o'z faoliyatini boshlagan lavhamiz qahramoni hozirda fuqarolar murojaatlari bilan ishlash, ularga O'zbekiston Respublikasi fuqarolik pasportini rasmiylashtirish kabi muhim vazifalarni ado etmoqda. Kun davomida 150–200 nafar fuqaroga xizmat ko'rsatish oson ish emas. Biroq u bu mas'uli-

yatni sabr, xushmuomalalik va kasbiga sadoqat bilan bajaradi.

Dilafruz Olimova bolaligidan jang san'ati va qo'l jangi bilan shug'ullanib keladi. Bu qiziqish yillar davomida katta sport yutuqlariga yo'l ochdi. Jang san'ati bo'yicha 16 karra O'zbekiston chempioni, ikki karra xalqaro turnirlar g'olibi bo'ldi. Shuningdek, birinchi darajali sertifikat va qora belbog' sohibi, sport ustasi sifatida e'tirof etilgan. Ayollar o'rtasida o'tkazilgan ko'pkurash va «To'maris» sport musobaqalarida ham faxrli o'rnlarni egallagan. 2025-yilda



xalqaro jang san'ati forumida viloyat IIB nomidan ishtirok etib, xalqaro tashkilotning tashakkurnomasi va pul mukofoti bilan taqdirlanishi uning sportdagi mehnati va mahoratiga berilgan munosib bahodir.

Xizmatdagi intizom, sportdagi matonat uning oilasida ham o'z aksini topgan. Turmush o'rtog'i Jamoliddin Shokirov huquqbuzarliklar profilaktikasi inspektori sifatida faoliyat yuritadi. Ular uch nafar farzand — ikki o'g'il va bir qizni tarbiyalab voyaga yetkazmoqda. Mehr-oqibatga to'la bu xonadonda farzandlar ham ota-onasining fidoyiligidan ibrat olib ulg'aymoqda.

— Kelgusi rejalarim ulkan, — deydi D. Olimova. — Sport arenalarida yurtimiz bayrog'ini yanada baland ko'tarishni, xizmat faoliyatimda esa fuqarolarga tez va sifatli xizmat ko'rsatib, ularning muammolariga huquqiy yechim topishda ko'maklashishni xohlayman.

Xizmat, sport va oila — uchala yo'nalishda ham barobar qadam tashlab, har birida munosib natijalarga erishayotgan bunday insonlar jamiyatimizda fidoyilik va matonat namunasi bo'lib xizmat qiladi.

Saminjon HUSANZODA,
o'z muxbirimiz.

Andijon viloyati.

Sohaviy xizmatlarda

TARG'IBOTNING O'RNI MUHIM

Kiberjinoyatchilik global muammoga aylanayotgan bir davrda ushbu illatning oldini olish, fuqarolarning raqamli savodxonligini oshirish borasida Yangihayot tumani IIOFMB HPB ATSJOOB xodimlari tomonidan tizimli ishlar amalga oshirilmoqda.

— Joriy yil boshidan buyon Yangihayot tumanida kiberjinoyatlar bilan bog'liq 281 ta murojaat o'rganilib, ularning 197 tasi bo'yicha jinoyat ishi qo'zg'atildi, — deydi ATSJOOB boshlig'i, katta leytenant Sherzod Kamalov. — Yaqinda IIV TQD Kiberxavfsizlik markazi, tuman IIOFMB TQX KJQKB hamda xodimlarimiz hamkorligida yirik jinoyat guruh faoliyatiga chek qo'yildi.

Tezkor surishtiruvlar davomida 21 yoshli fuqaro kriptobirja orqali litsenziyasiz faoliyat yuritib, qisqa vaqt ichida 35,6 milliard so'mdan ortiq kriptofondlar oldi-sotdisini amalga oshirgani aniqlandi. Xodimlar gumonlanuvchining xonadoni va sherigining avtoullovini ko'zdan kechirganda, 388 dona bank plastik kartalari, 56 dona telefon apparatlari hamda boshqa hujjatlar borligi ma'lum bo'lgan.



E'tiborlisi, guruhning boshqa a'zolari ham fosh etilib, ulardan birining yonidan sintetik giyohvandlik moddalarini topilgan kiberjinoyatchilikning boshqa xavfli jinoyatlar bilan naqadar bog'liqligini ko'rsatadi. Mazkur holat yuzasidan Jinoyat kodeksining tegishli moddalarini bilan jinoyat ishi qo'zg'atilgan.

Huquqbuzarlik va jinoyatlarni fosh etish bilan bir qatorda, ularning oldini olish maqsadida tuman hududidagi 454 ta obyektida targ'ibot tadbirlari o'tkazildi. Soha xodimlari mahallalar, maktablar, bozorlar va idoralarda bo'lib, fuqarolarga raqamli xavfsizlik qoidalarini tushuntirish ishlarini olib borishmoqda.

Bu kabi murakkab va ko'p bosqichli jinoyatlarni barvaqt aniqlash hamda ularning oldini olishda Yangihayot tumani IIOFMB HPB ATSJOOB inspektorlarining alohida o'rni bor. Xususan, sohaning tajribali xodimlari — kapitanlar Jamoliddin Hayitov, Abduvohid Abdujabborov hamda leytenant Charos Ahmedovalar bugungi kun-

da aholining eng yaqin maslahatchisiga aylangan.

Ularning ish kuni bevosita mahallalarda, xonadonlarda va ta'lim muassasalarida o'tadi. Inspektorlar tomonidan olib borilayotgan profilaktik-tushuntirish ishlari natijasida ko'plab fuqarolar, ayniqsa, soddaligi bilan firibgarlar tuzog'iga tushib qolishi mumkin bo'lgan kek-salar va yoshlar o'z vaqtida ogohlantirilmoqda. Xodimlar har bir uchrashuvda kiberjinoyatchilikning yangi-chi usullari bo'lgan plastik kartalardan pul o'g'irlash, soxta havolalar (fishing) va ijtimoiy tarmoqlardagi aldovlar haqida hayotiy misollar bilan tushuncha bermoqda. Zero, raqamli texnologiyalar asrida har bir qadam ogohlikni talab etadi. Yangihayot tumani IIOFMB HPB ATSJOOB xodimlari esa bu yo'lda nafaqat targ'ibotchi, balki qonun ustuvorligini ta'minlovchi qalqon sifatida xizmat qilmoqda.

Sarvar SOBIROV,
o'z muxbirimiz.

Toshkent shahri.



Xizmatlarda

TERGOVNING HAR LAHZASI SARGUZASHT

yoxud haqiqatning ko'zlariga tik boqib...

Namangan viloyati Mingbuloq tumani IIB huzuridagi tergov bo'linmasi boshlig'i, kapitan Rahmatullo Abdurahmonov faoliyati bilan tanishuv jarayonida tushunib yetdimki, bu kasbni inson tanlamaydi. Aksincha, aynan u o'z egasini tanlar ekan.

2013–2014-yillarda Rahmatullo harbiy xizmatda bo'lib, IIV Akademiyasida tahsil olishga jiddiy tayyorlangandi. El-urt osoyishtaligi uchun o'zini butun borlig'i bilan safarbar etish, hamisha hushor va jismonan shay turish unga odat bo'ldi. Harbiylar va ichki ishlar organlari hodimlarining murakkab hayot va faoliyat yo'li haqida o'qiganlarini hayot bilan solishtirdi.

2018-yilda leytenant unvoni bilan ish boshlagan yigitning yuragida bir maqsad bor edi: «Haqiqatni qaror toptirish». Uychidagi surishtiruv jarayonlari, Uchqo'rg'ondagi jinoyatlarni ochish bilan bog'liq murakkab vaziyatlar va viloyat boshqarmasining qat'iy talablari Rahmatulloning irodasini tobladi. Kasbga sadoqat, adolatga ishonch, haqiqatga ixlos bilan tik qarash va yurtga muhabbat uni har qadamda rivojlantirdi.

Endilikda tergov bo'linmasiga rahbarlik qilayot-

gan R.Abdurahmonov faqat topshiriq bajaruvchi emas, qonun bilan kafolatlangan huquq va burchlari doirasida o'z bilim va tajribasiga suyangan holda mustaqil ish yuritmoqda. U har bir murojaatni diqqat-e'tibor bilan eshitib, har qanday mazmundagi masalani shaxsiy dardiday qabul qiladi.

Tergovchi sifatida jinoyat ishini chuqur tahlil qiladi, voqea ichida yashaydi, insonga xos murakkabliklarni nazardan qochirmagan holda yuragidan o'tkazadi.

Yodida, oddiy chorva o'g'irligi ko'rinishidagi ish. Gumonlanuvchi qo'lga olingan, aybiga to'liq iqror, hujjatlar ham badastir. Ammo kapitan Rahmatullo Abdurahmonov ko'nglidagi shubha arimayapti. Avvaliga o'zini o'zi tahlil qildi. Har holda, bu ichki sezgi tarzidagi shunchaki badgumonlik emas?

Qayta tergovga kirishdi. Tergovchi bu safar o'g'rilik



harakatining har bir vaziyatini qadam-baqadam nazardan o'tkazish bilan rosmiyan yashab o'tdi. Telefon so'zlashuvlarini o'rganib, har bir aloqa mazmunini sinchkovlik bilan tekshirdi. Shu tariqa, sodir etilgan jinoyatda uchinchi shaxs – X.Z.ning ishtiroki aniqlandi.

Agar ish faqat to'plangan hujjatlarga tayanib yakunlanganida, asosiy aybdor

ozodlikda qolar va yana jinoyat urchishi mumkin edi. Rahmatulloning chuqur bilimi va kasbiy tajribasi tufayli jinoyat to'la ochildi.

– Tergovda ishga hech qachon bir tarafdin yondashib bo'lmaydi, – deydi u. – Shaxslar, tafsilotlar nazardan qochirilmaligi kerak. Agar tergovchi xolislik tarozisini to'g'ri ushlamasa, tamom. Bu noxolislik yanada katta

va fojiali jinoyatlarga sabab bo'lishi mumkin.

Lavhamiz qahramonining bizga ortiq vaqt ajratolmasligi sabablarini qisqa muloqot jarayonidayoq tushungandek bo'ldik. U hamkasblari bilan qandaydir reja bo'yicha ko'z suhbatini ham o'tkazgandek bo'ldi. Balki yana bir mudhish jinoyatning ildizini ochish va qonun tarozisiga solish jarayoniga kirishayotgandir. Har holda, uning oldidan ko'nglim to'lib chiqdim.

Ortga qaytarkanman, Rahmatulloning xizmat ma'lumotnomasi xayolimda tiklandi. Namangan viloyati Mingbuloq tumani IIB huzuridagi tergov bo'linmasi boshlig'i, kapitan Abdurahmonov Rahmatullo Abdullajon o'g'li oilada to'rt qizdan keyingi yolg'iz o'g'li. Oilali, ikki nafar farzandi bor. Xizmat faoliyati davomida 11 marotaba rag'batlantirilgan...

Navbatdagi tergov ishini yakunlagach, Rahmatullo Abdurahmonov bilan yana ko'rishishni, u boshqarayotgan ahil jamoaning muvaffaqiyatlari haqida kengroq va batafsilroq yozishni niyat qildim.

Jahongir TO'XTASINOV,
o'z muxbirimiz.

Odam savdosi – global muammo

SABIL QOLGAN SAFAR

Odam savdosi bilan bog'liq jinoyat hech qachon tasodifan sodir etilmaydi. U oldindan rejalashtirilgan, inson taqdiri va ishonchini suiiste'mol qilishga qaratilgan qabih harakatdir. Eng achinarlisi, bu kabi jinoyatlarda ko'pincha hayotda o'z yo'lini izlayotgan, qo'shimcha daromadga muhtoj insonlar qurbon bo'ladi.

Yaqinda shunday bir jinoyatga o'z vaqtida chek qo'yildi. Farg'ona viloyati IIB TQX JQB Uyushgan jinoyatchilikka qarshi kurashish bo'limi odam savdosiga qarshi kurashish bo'linmasi xodimlari tomonidan o'tkazilgan tezkor tadbir davomida ayollarni chet elga aldov yo'li bilan olib chiqib, ulardan shahvoniy maqsadlarda foydalanishni rejalashtirgan jinoiy guruh fosh etildi.

Ma'lum bo'lishicha, Buvayda tumani «Jalayer» mahallasida tug'ilgan, ayni vaqtda Rossiya Federatsiyasining Nijniy Novgorod shahrida istiqomat qilayotgan Sh.S. ismli ayol ushbu jinoiy guruhning asosiy tashkilotchilaridan biri bo'lgan.

U Qo'shtepa tumanida yashovchi Sh.U. ismli yigit hamda Farg'ona tumanida istiqomat qiluvchi B.U. ismli ayol bilan telefon va internet orqali doimiy bog'lanib turgan. Ular o'zaro til biriktirib, sodda xotin-qizlarni chet elga yuborish bilan shug'ullanib kelishgan.

Jinoiy guruh o'z faoliyatida ishonchli ko'ringan usullarni qo'llagan: ya'ni, chet elda yuqori daromadli ish va'da qilish, barcha safar xarajatlarini qoplab berish, tez va oson pul topish haqida yolg'on tasavvur uyg'otish. Ana shu aldovlarga ishongan Farg'ona shahrida yashovchi, 1982-yilda tug'ilgan ayol hamda Toshloq tumanida istiqomat qiluvchi,

2004-yilda tug'ilgan qiz ularning qurboniga aylandi.

Guruh a'zolari jabrlanuvchilarga aviachiptalar rasmiylashtirib, ularni «Toshkent» xalqaro aeroporti orqali Rossiyaga jo'natishgan. Biroq huquqni muhofaza qiluvchi organlar xodimlarining tezkor va puxta harakatlari tufayli bu reja amalga oshmay qoldi. Gumondorlar Nijniy Novgorod aeroportida ro'yxatdan o'tish jarayonida qo'lga olindi.

Hozirda mazkur holat yuzasidan Jinoyat kodeksining 135-moddasi bilan jinoyat ishi qo'zg'atilib, tergov harakatlari olib borilmoqda.

Shu o'rinda, har bir fuqaro hushyor bo'lishi juda muhimligini eslatib o'tamiz. Chet elda ishlash haqidagi har qanday taklifni puxta o'ylab ko'ring, rasmiy va qonuniy manbalar orqali ma'lumot oling, shubhali shaxslarga esa mutlaqo ishonmang! Shunda hech qachon aldanib qolmaydiz!

Abduvosit SIDIQOV,
o'z muxbirimiz.

Farg'ona viloyati.



Surat sun'iy intellektida tayyorlandi.

Mulohaza

MEN NECHUN SEVAMAN MEHMONNI?

Mehmonga borish va mehmonni siylash asli bizga otameros. Bolalikdan ko'pchiligimiz shu holatga guvoh bo'lganmiz. Erkaklar amma, xola va qizlarinikiga tez-tez mehmonga borishgan, xizmatda bir safda bo'lgan, institutda birga o'qigan kursdoshlarinikiga borib, ko'ngil chigilini yozib kelishgan bo'lsa, ayollar ota-onasining uyiga borib, yaqinlari, qarindosh-u dugonalari bilan diydorlashib, dardlashib kelgan.



– Tog' ortiga tur-mushga chiqib ketgan bir ammamiz 30–35 chaqirimlik masofani erta tongdan kechgacha piyoda bosib o'tib, boshida bir tandir patir bilan tog' oshib uyimizga kelganini hanuz eslayman, – deydi qo'shni qishloqlik 70 yoshga kirayotgan Abdusayit aka. – Ammam uyimizda bir-ikki kun turgach, yana tongda turib qo'lida tuguncha bilan piyoda ortiga qaytib ketardi. Biz ammamizdan ayrilgimiz kelmay, uni besh-olti chaqirim eshakda kuza-tib kelardik. U yog'iga ammam o'zi ketardi, biz jiyanlar ortga qaytardik.

Shuning o'zi chinakam sog'inch qalbdagi, mehr ko'zda ekanligiga, oqibat masofada emasligiga yaqqol dalil emasmi? Ammo bugun bunday sog'inchlar, mehrli ko'zlar, silayi rahm oqibatlari qayoqqa yo'qoldi? Nahotki hozirgi ko'zlar avvalgi ko'zlarga o'xshamay, yuraklar bu-rungiday jigarlarga talpinmay qolgan bo'lsa?

Kimdir buning sababini iqtisodga, yana kimdir vaqtga taqaydi. Boshqa birov esa zamon rivojlanib, odamlar vaqtini besamar sarflamaslikni o'rganyapti, desa, ayrimlar kommunikatsiya tizimlari takomillashgani tufayli onlayn muloqotlar ko'payganida, deb biladi. Balki shundaydir. Ammo bundan ko'ngil qanchalik

to'lyapti, sog'inch qancha bosilyapti?

– Bolam chet elda ishlaydi. Bir yilda bir ketadi. O'zini telefonda ko'rib, gaplashib turamiz-u, ammo oldingda bo'lganday bo'lmas ekan. Hidlarini sog'inaman bolamning. Endi men shu yoshimda bolamni shuncha sog'inyapman, manovi yosh go'daklari sog'inmaydi, deysizma, – deydi bir onaxon ko'ziga qalqigan yoshini artib. – Mayli, qayerda bo'lsayam, omon bo'lsin, taqdirimizda bor ekan, ko'namiz-da...

Xalqimizning barchamiz biladigan bir buyuk hikmati bor. Biz hamma-miz bu dunyoning mehmonimiz. Buyuk allomalarimiz **«Keldik, ketamiz, kelishar, ketar»**, deyishganidek, bu dunyoga kelamiz va vaqtincha yashab, yana ketamiz. Mehmon ham shunday. **«Uch kundan ortiq mehmon to'xtamas»**, deydi Maxtumquli bobo.

Mehmon kim, uni kut-sak nima bo'ladi-yu, kut-masak nimaga erishamiz yoki mehmon kelmasa, birdan boyib ketamizmi, shular haqida ham mulohaza yuritsak.

«Aytib, ogohlantirib kelmagan mehmon, atoi Xudo, aytib kelgan mehmon baloyi Xudo», degan aytilar ham borki, bunda ogohlantirib kelgan mehmonga tayyorgarlik ko'rilishi, maxsus bozor

qilinib, ovora bo'lish holatlari nazarda tutiladi. Aytmay kelgan mehmon esa uyda borini yeb ketadi. Ammo ota-bobolarimiz uyida bori – atigi bitta moli bo'lsa ham, o'shani mehmon uchun so'yib, ularni siylab kuzatishgani haqida misollar ko'p.

Masalan, bebaho zot-dor otini sotib olishga kelgan podshoga o'sha hech kimga sotmagan qimmatbaho otini so'yib, mehmonni uch kun siylagan kishi haqida o'qiganmiz. Eslasak, taniqli adib To'lepbergen Qayip-bergenov o'zining «Qoraqalpog'noma» asarida «Bir kuni kechroq mahali uyimizga uch kishi meh-monga kelishdi. Otamning eski tanish qadrdonlari ekan. Otam uyimizdagi bor-yo'g'i bitta tovug'imizni so'yib, ularni mehmon qildi. Men esa «Endi qanday yashaymiz, axir uning tuxumini yeb kun ko'rayotgan edik», deb ancha sarosimaga tushdim. Ammo ertasi kun ertalab ular meni Chimboydagi maktab-internatga olib ketishdi. 6 oydan so'ng uyga qaytib kelsam, hovlimizda bir gala tovuq yurganini ko'rdim», – deb yozadi.

«Mehmonning o'zi ham mehmon, so'zi ham mehmon» degan maqolimiz bor. Bu haqda Maxtumquli

«Kelgan odam kel-magidan Burma yuz,

Kelgan osh-nongamas so'zga mehmon-dir» – deydi.

Darhaqiqat, odam borki, kim bilandir suhbatlashgisi, dardlashgisi keladi. Ammo ko'ngil dasturxon emaski, uni hammaga birday yozib bo'lsa. Suhbatni duch kelgan odam bilan emas, balki ko'ngli yoqtiradigan, dunyoqarashlari yaqin kishi bilan qilgisi keladi. Asli do'stlar yillar davomida shunday tanlanadi, sara-lanadi. O'zaro fikrdosh-lar, qiziqishi yaqinlar bir-biri bilan do'st bo'lishadi. Vaqt o'tib, birgalikda o'tgan damlarini qo'msab, biri boshqasini meh-monga borishadi. Hatto bir umr oilaviy bordi-keldi qilishadi. Bunday eski do'stlar haqida «To'nning yangisi, do'stning eskisi yaxshi» degan aytilar ham bor.

Yuqoridagilardan xulosani Hujviriyning **«Men nima uchun mehmonni yaxshi ko'raman, chunki mehmonning rizqini xudo beradi, savobi esa menga qoladi»** degan fikri bilan yakunlamochiman. Savob esa ikki dunyo saodatining asosi, mulki. Bu saodatga erishish, mulkka egalik qilish uchun esa nafaqat so'nggi tovuq, balki eng qimmatbaho otlar so'yilib ketgani ham shundan.

Shuhrat RO'ZIYEV,
jurnalist.

Jinoyat olamida

MASHINADA «ZINDONBAND» BO'LDI

AQSHning Pittsburg shaharlik D. Xoniks bosqinchilik qilishga o'zicha puxta tayyorlandi. U eg-niga masxarabozlarning ishtoni-ni, ayollar koftasini, boshiga esa parik kiyib, iyagiga qora soqol yopishtirdi. Shu holda bankka kirib, ozroq pul o'mardi.

Keyin o'sha yaqindagi yoqilg'i quyish shoxobchasidagi mashin-lardan biriga olib qochmoq niyatida o'tirdi. Ammo haydovchi ayol o'zini yo'qotib qo'ymadi. U kalitni olib, mashinadan otilib tushdi. Pult yordamida eshiklarni qulflab, politsiya chaqirdi. Tezda yetib kelgan politsiyachilar omad-siz bosqinchini qo'lga olishdi.

«HUJJATINGNI KO'RSAT»

Yarim tunda Sankt-Peter-burgdagi ichimliklar do'koniga kirgan yigit sotuvchiga to'ppon-cha o'qtalib, pul va bir necha shisha qimmatbaho konyak be-rishini talab qildi. Kassir bamay-lixotir kassadagi pullarni uzatib:

– Spirtli ichimlik olishing uchun 21 yoshda bo'lishing ke-rak, hujjatingni ko'rsat! – dedi.

Bosqinchi jahl bilan cho'nta-gidan pasportini olib, sotuvchiga ko'rsatdi. U uyda konyak ichib o'tirganida politsiyachilar kirib kelganini ko'rib hang-u mang bo'lib qoldi.

SHOSHGANDA LABBAY TOPILMAS

Rossiyaning Kirov shahrida-gi «Bolalar dunyosi» do'koniga ish vaqti tugay deganda o'g'-rilik qilish niyatida kirgan yigit hech kimga bildirmasdan bo'sh qutiga joylashib oldi. Do'kon yopilgach, qutidan chiqib, kas-sadagi pullarni olganida, signa-lizatsiya ishlab ketsa bo'ladimi. U yashirinish uchun yana o'sha bo'sh qutiga kirib oldi. Azbaroyi shoshganidan politsiyachilar iskovuch it bilan kelishini unutib qo'ydi. Huquq-tartibot posbon-larining to'rt oyoqli ko'makchisi darhol uni hidlab topdi.

QOP O'RNIGA PISTOLET

Londondagi banklarning bi-riga bostirib kirgan jinoyatchiga qattiq hayajonlangani pand ber-di. «Mana bu qopga 700 ming funt sterling soling», – deb u kassirga qop o'rniga to'ppon-chani uzatdi. Kassir paytdan foydalanib, to'pponchani uning o'ziga to'g'riladi. Qo'rqib ketgan bosqinchi qochib qoldi. Quruq ketmay deb bank xodimlaridan biriga tegishli velosipedni olib qochdi. Ammo ko'p uzoqqa ke-tolmadi, qo'lga tushdi...

Internet materiallari asosida
Bobomurod TOSHEV
tayyorladi.

Xizmatdan tashqarida

– Momiqvoyni asrab olganimizga 3 yil bo'ldi, – deydi IIV Akademiyasi katta o'qituvchisi, podpolkovnik Nilufar Nasriddinova. – Shunday chiroyli, o'z nomi bilan momiq jonivorning bitta old oyog'i yo'q. Uni ko'chadan topib olgan veterinarning so'zlab berishicha, oyog'i ochiq singani va uzoq vaqt sudralib yurgani uchun qonga infeksiya tushgan. Natijada amputatsiya qilishga majbur bo'lishgan. Emlashga olib borganimizda veterinar bepul emlab qo'yadi. Chunki jonivorning g'amxo'rlik va e'tibor bilan parvarish qilinayotganidan u ham xursand.

Nilufar Nasriddinova – Jizax farzandi. U Akademiyani tamomlagach, viloyat IIBda ko'p yillar xizmat qildi. Halol va samarali mehnatlari uchun xizmat pog'onalaridan ildamladi. 2018–2021-yillarda Moskvadagi Rossiya Federatsiyasi IIV Boshqaruv akademiyasi ad'yunkturasida tahsil oldi.

– Ochig'i, Momiqvoyni asrab olishimga sabab farzandimning iltimosi va jonivorlarga bo'lgan mehrim, – deydi u. – Ehtimol, hayvonlarga g'amxo'rlik ko'rsatish ayrimlarning g'ashini keltirar, ammo ularning ham tirik jon, xuddi inson kabi maxluqot ekanini unutmashlik zarur. Hayvonga mehr bera olmadingmi, ozor ham berish kerak emas. Ichki ishlar organi xodimining asosiy sifatlaridan biri odamlarga

HIMOYACHI

Siz suratda ko'rib turgan bu mushukcha xuddi gipsdan yasalgan haykalga o'xshaydi. Ammo u jonli, egasi yuvib-tarab, yaxshi parvarish qilgani uchun marmardek jilolanadi. Ehtimol, oddiy jonivor bo'lganida uni «bosh plan»ga olib chiqish shart emasdi. Ammo bu mushuk egasining haqiqiy ma'nodagi himoyachilik vazifasini amalda isbot etgani uchun maqolamizga pesh bo'lib turibdi.



jinoyatchi, gumonlanuvchi deb emas, tirik jon, turli ta'sirlar ostida xatoga yo'l qo'yishi mumkin bo'lgan mavjudot deb qarashidir. Bizning kasbimizda odamiylik, ma'naviyatlilik shu qadar zarur.

Darvoqe, Nilufar Nasriddinovaning ayni paytdagi faoliyati faqat osoyishtalik posbonlariga tahsil berish bilan tugamaydi. Poytaxtdagi «Zakovat arena»da har hafta o'tkaziladigan «Zakovat» intellektual o'yinida hamkasblari bilan tuzilgan jamoa tarkibida muntazam faol qatnashadi. Kitobxonlik bo'yicha Akademiya-da o'tkazilgan tanlovlarda ham peshqadam. O'tgan yil oktabr oyida ichki ishlar organlari xodimlari o'rtasida o'tkazilgan «Eng yaxshi kitobxon» tanlovining respublika bosqichida esa 3-o'rinni qo'lga kiritdi.

– Ichki ishlar organi xodimining ma'naviyatli, ziyoli bo'lishi jinoyatchilikka qarshi kurashda, kriminogen vaziyatni yaxshilashda, albatta, asqatadi, – deydi suhbatdoshimiz ishonch bilan.

Muqaddas SAPAROVA,
o'z muxbirimiz.

Tergovni bilimdonlar olib boradi

KO'ZLARDAGI QUVONCH YOLQINI

Navoiy shahridagi mahallalardan birida o'g'rilik yuz berdi. Jabrlanuvchi o'z murojaatida xonadonidagi bir qancha qimmatbaho buyumlar o'g'irlab ketilganini ma'lum qilgan edi. Ko'p o'tmay voqea joyiga Navoiy viloyati IIB huzuridagi Tergov boshqarmasi katta tergovchisi, podpolkovnik Javlon Sharipov boshchiligidagi tergov-tezkor guruhi yetib keldi.

Birinci galda holat atroflicha o'rganildi. Ya'ni, hodisa joyi sinchiklab ko'zdan kechirildi, qo'shnilar va ehtimoliy guvohlardan tushuntirishlar olindi. Hatto mayda tafsilotlar ham nazardan qochirilmadi. Jumladan, uy eshigidagi buzilish izlari va yon-atrofdan topilgan narsalar tekshirildi. Shuningdek, kuzatuv kameraning yozuvlari ko'zdan kechirildi.

Garchi videotasvirlarda faqat birgina shaxsning xatti-harakati qayd etilgan bo'lsa-da, lavhamiz qahramoni to'plangan materiallarni qayta-qayta o'rganib, o'g'rilik guruh bo'lib sodir etilgan, degan xulosaga keldi. O'tkazilgan tezkor tadbirlar natijasida avval kamerada aks etgan, gumon qilinuvchi, keyin uning jinoiy sheriklari qo'lga

olindi. Ular dastlabki tergov harakatlari jarayonida qilmishiga iqrar bo'lishdi.

Aniqlanishicha, ular uy egasining o'sha kuni xonadonida yo'qligidan xabardor bo'lishgan. Qulay imkoniyatdan foydalanib, o'g'rilikka tushishgan. Dastlabki tergov harakatlari davomida o'g'irlangan buyumlarning asosiy qismi topilib, qonuniy egasiga qaytarildi.

Podpolkovnik Javlon Sharipovning ta'kidlashicha, bu sohada eng muhim jihat – xolislik, sinchiklik va sabr-toqat. Chunki har bir jinoyat ishi ortida inson taqdiri yotadi. Jinoyat tafsilotlarini, voqea joyini yetarlicha o'rganmasdan, shoshma-shosharlik bilan xulosa chiqarish adolatga putur yetkazishi mumkin.



Tergovchilik kasbi oson emas. Ba'zan uning ishi tun yarmigacha davom etadi, hujjatlar bilan uzoq vaqt mashg'ul bo'lish, turli insonlar bilan ularning fe'l-atvoridan kelib chiqqan holda suhbat olib borish talab etiladi. Adolat qaror topgan paytda esa, jabrlanuvchining

ko'zlaridagi quvonch yolqinini ko'rganida, podpolkovnik Javlon Sharipov o'z mehnatining samarasini his qilib, bor charchoq'ini unutadi.

Mahliyo XOLOVA,
o'z muxbirimiz.

Navoiy viloyati.



Chilonzor tajribasi

TARTIB BOR JOYDA...

Sherobod tumanida jinoyatchilikning oldini olish, aholi xavfsizligini ta'minlash va huquqbuzarliklarga qarshi kurashishda tuman hokimligi hamda hamkor tashkilotlar ishtirokida qo'shma qaror qabul qilinib, doimiy faoliyat yurituvchi idoralararo tezkor shtab tashkil etildi. Bu o'zaro hamkorlikni mustahkamlab, muammolarga tezkor va aniq yechim topish imkonini bermogda.

Tajriba doirasida tuman-dagi 48 ta mahalla fuqarolar yig'ini kesimida choraklik «yo'l xaritalari» ishlab chiqilib, amalga tatbiq etilmoqda. Mazkur yo'l xaritalari orqali har bir hududdagi kriminogen vaziyat chuqur tahlil qilinib, aniq vazifalar belgilab olingani o'z samarasini bermogda.

– Muqaddam jinoyat sodir etgan 107 nafar shaxsning yashash sharoiti o'rganilib, ularning 14 nafari doimiy ish bilan ta'minlandi, – deydi tuman IIB HPB tashkiliy-tahlil guruhi katta inspektori, katta leytenant Muhiddin

Ziyoyev. – Qolaversa, jinoyat sodir etishga moyil yoki jabrlanish ehtimoli yuqori bo'lgan 2057 nafar fuqaro ijtimoiy profilaktika obyekti sifatida ro'yxatga olingan bo'lib, ulardan 785 nafarining muammolari manzilli tarzda o'rganilib, ijobiy hal etildi.

Tumanda xavfsizlik infratuzilmasini rivojlantirish borasida ham salmoqli ishlar amalga oshirilmoqda. Barcha mahallalarning kirishchiqish nuqtalariga 48 ta kuzatuv kamerasi o'rnatilib, ular «Xavfsiz shahar» tizimiga integratsiya qilindi. Bu jinoyatlarni barvaqt aniqlash

va oldini olish imkoniyatlarini kengaytirdi.

Ijtimoiy xavf guruhiga kiruvchi shaxslar bilan manzilli ishlash tizimi yo'lga qo'yilgani ham diqqatga molik. Buning natijasida ichkilikbozlik va giyohvandlikka moyil, ruhiy jihatdan tajovuzkor bo'lgan 11 nafar shaxs davolanish muassasalariga yuborildi. «Tig'» tadbiri davomida 86 ta o'tkir jism aniqlanib, olib qo'yildi, aybdorlar jarimaga tortildi.

Yoshlar o'rtasida jinoyatchilikning oldini olish maqsadida inspektor-psixologlar tomonidan 54 ma-



rotaba profilaktik reydlar o'tkazilib, voyaga yetmaganlarni turli ko'ngilochar joylarda bo'lishiga sharoit yaratgan 10 nafar shaxsga nisbatan qonunchilikka muvofiq chora ko'rildi. Shu bilan birga, 95 nafar shaxsga nisbatan himoya orderi berilgani tumanda oilaviy zo'ravonliklarning oldini olish yo'nalishida izchil ish olib borilayotganini ko'rsatadi.

Aholi gavjum joylarda, ta'lim muassasalarida fuqarolarga internet orqali sodir etiladigan jinoyatlardan himoyalaniish bo'yicha tushunchalar berilmoqda. Ayniqsa, kriminogen vaziyat murakkab bo'lgan «Kattabog'» mahallasida olib borilayotgan ishlar alohida e'tiborga loyiq. Bu yerda

jinoyatga moyil shaxslar ro'yxati shakllantirilib, ular bilan manzilli ishlash tizimi joriy etildi.

Xulosa qilib aytganda, «Chilonzor tajribasi» Sherobod tumanida jinoyatchilikning oldini olish, aholi xavfsizligini ta'minlash va huquqbuzarliklarga qarshi kurashishda samarali mexanizm sifatida o'zini oqlamoqda. Eng muhimi, mazkur yondashuv orqali har bir fuqaro taqdiriga befarq bo'lmaslik, muammolarni manzilli hal etish va jamiyatda huquqiy ongni yuksaltirishga erishilmoqda.

Feruza RAHMONQULOVA,
o'z muxbirimiz.

Surxondaryo viloyati.



Jazoni ijro etish tizimida

UMID UCHQUNI SO'NMA SIN

Sodir etgan jinoyati uchun jazo muddatini o'tayotgan insonlar bilan ishlash har kimning ham qo'lidan kelavermaydi. Buning uchun faqat qonunlarnigina bilish yetarli emas. Ushbu soha vakillari inson ruhiyatini, qalbini tushunishi, xato qilgan, qoqilganlarni to'g'ri yo'lga boshlashning ham chorasini topish kerak. Ana shunday mas'uliyatli kasbni tanlagan yoshlarimizdan biri leytenant Husniddin Ma'mirovdir.

2024-yildan buyon IIV huzuridagi JIED Uchinchi mintaqaviy hududi 40-sonli manzil koloniyasida tartibot bo'linmasi katta inspektori lavozimida faoliyat yuritib kelayotgan lavhamiz qahramonida mahkumlar bilan profilaktik suhbatlar o'tkazish, ularning ruhiy holatini kuzatish, ma'naviy-ma'rifiy ishlarni tashkil etish xususiyatlari mujassam.

Bir qarashda oddiy tuyulgan quyidagi voqeada ham uning mas'uliyatliligi bo'y ko'rsatadi. Namangan viloyatilik mahkum Mo'min Valiyev (ism-shariflari o'zgartirildi) ish jarayonida boshqa mahkum bilan tortishib qoladi. Bunday hol jiddiy oqibatlariga olib kelishi ham mumkin. Shu bois

Husniddin Ma'mirov vaziyatga o'z vaqtida aralashadi. Natijada kelishmovchilik bartaraf etiladi. Shundan so'ng ularni nazoratga olib, kelgusida bunday holat takrorlanmasligi uchun har biri bilan yakka tartibda doimiy ish olib boradi.

Husniddinning ish faoliyati faqat koloniya hududi bilan cheklanib qolmaydi. U mahkumlar mehnat qilayotgan ishlab chiqarish obyektlarida ham tez-tez bo'lib tura-di. Guliston shahridagi «Vangda metall» korxonasida o'tkazilgan uchrashuv ham ana shunday tadbirlardan biri bo'ldi. Bu yerda o'ndan ortiq mahkum bilan suhbatlashib, ularning mehnat sharoitlari va intizomini o'rgandi.

Shirin shahridagi beton plitalar ishlab chiqarish korxonasida bo'lgan uchrashuv yanada ta'sirchan kechdi. Bu yerda yigirmadan ortiq mahkum mehnat qiladi. Ular orasida yoshi ellikni qoralab qolgan N. S. ham bor. Uning ko'zlari o'ychan, yuragida esa pushaymonlik yashirin.

Shunday paytlarda Husniddin N.S.ga dalda beradi, hayot davom etayotganini, inson o'zgarishi mumkinligini tushuntiradi. Bunday samimiy munosabat har qanday mahkum uchun juda katta ruhiy tayanch bo'ladi. Haqiqiy tarbiya tushunish va yo'l ko'rsatishdir. Husniddin Ma'mirov ana shu



tamoyilga amal qilib ish yuritadi. U mahkumlarni faqat nazorat qilmaydi, balki ularni to'g'ri yo'lga boshlashga intiladi.

Abdurahmon MUSTAFOQULOV,
o'z muxbirimiz.

Sirdaryo viloyati.



Ибрат мактаби

СЕРМАЗМУН УМР
СОҲИБИ

Бугун Қашқадарё вилоятида истеъфодаги майор Зиёдулла Пардаевни кўпчилик ўз вақтида билимдон ва маҳоратли терговчи бўлганини эътироф этади, тажрибали фахрий, олижаноб инсон сифатида ҳурмат билан тилга олади.



У Фузор туманининг Ёргунчи қишлоғида, оддий деҳқон оила-сида туғилиб, вояга етган.

— Олий милиция мактабини тамомлаганимдан кейин, 1979 йили Қашқадарё вилояти ИИБга йўлланма билан ишга келдим, — дея хотирлайди қаҳрамонимиз. — Дастлабки хизмат фаолиятимни эса Қарши шаҳар ИИБ Тергов бўлинимаси терговчиси лавозимида бошладим. Касб сирларидан воқиф бўлишда устозларим Ҳазрат Баҳриев, Холли Жовлиев ва Исмоилхон Убайдуллаевларнинг хизмати катта бўлди. Уларнинг сабоқларидан жиноятни очишда майда деталларгача ўрганиш ва сўнгра қонуний тўхтамга келиш муҳим аҳамият касб этишини англадим. Шу боис устозларимдан бир умр миннатдорман.

Зиёдулла Пардаев Деҳқон-обод тумани ИИБ тергов гуруҳи катта терговчиси лавозимида ишлаган кезларда ҳам кўплаб жиноятларни тергов қилиш ва жиноятга жазо муқаррарлигини таъминлашда жонбозлик кўрсатди. Ундаги иштиёқ ва талабчанлик, билим ва малака кейинчалик Қарши шаҳар ҳамда Чироқчи тумани ИИБ тергов бўлиmlарида катта терговчи, вилоят ИИБ тергов бўлими терговчиси лавозимларида хизмат қилишига замин ҳозирлади. Соҳавий хизматда орттирган тажрибаси, адолатни устувор билиш хислати, ҳар бир қонунбузилиш ҳолати таҳлили ортида инсон тақдири ва манфаати турганини ҳис қилиш қобилияти фаолиятда

катта ютуқларга эришишида унга қўл келди.

Хизмат фаолиятининг кейинги йилларида Деҳқонобод тумани ИИБ ҲООБ бошлиғи лавозимида ишлаган Зиёдулла Пардаев иззат-икром билан пенсияга кузатилди.

28 йиллик хизмат фаолияти давомида ўзига хос тажриба мактабини яратган қаҳрамонимиз кўплаб ходимларга мураббийлик қилди. Айниқса, ҳозирда истеъфодаги подполковниклар Қаҳрамон Салоҳов, Муҳиддин Норқобилов, истеъфодаги майор Хайрулла Нормуродовлар уни устоз сифатида ҳурмат қилади.

Мақоламиз қаҳрамони пенсияга чиққандан кейин Қарши шаҳар суд ижросиси, «Пахта тозалаш» ОХЖ ва вилоят ҳокимлиги инжиниринг компаниясида ҳуқуқ-шунос бўлиб ишлади. Билим ва малакасини ишга солиб, адолат ва қонун устуворлигини таъминлашга муносиб ҳисса қўшди.

75 ёшни қаршилаган қаҳрамонимиз — ибратли умр соҳиб-и Зиёдулла Пардаев турмуш ўртоғи Ойдин ая билан 6 нафар фарзандни эл қорига ярайдиган инсонлар қилиб тарбиялади. Улар бугун турли соҳаларда фаолият кўрсатяпти. Қизи, III даражали сержант Шаҳноза Пардаева Ҳарбий хавфсизлик ва мудофаа университетида хизмат қилади. Укаси Эшқувват Пардаев ҳам ички ишлар органларида хизмат қилган истеъфодаги майор.

**Содиқ РАҲИМОВ,
ўз мухбиримиз.**

Қашқадарё вилояти.

Poytaxt namunasi

HUSHYORLIK SAMARASI

Poytaxtimizning Chilonzor tumanida xavfsiz muhitni ta'minlashga qaratilgan tezkor-profilaktik tadbirlar yuqori saviyada va uyushqoqlik bilan olib borilmoqda.

— Mahallamizdagi 42-uy atrofida fuqarolar bilan profilaktik tadbirlar o'tkazilayotgan vaqtda ikki nafar yigit menda shubha uyg'otdi, — deydi «Xir-montepa» mahallasi profilaktika inspektori Laziz Abdulkarimov. — Ularni to'xtatib, yashash manzilini so'raganimda, ikkalasi ham qochib ketishdi. Birini quvlab borib, qo'lga olishga muvaffaq bo'ldim.

Ular bejiz o'zlarini shubhali tutmagan va qochishga urinmagan ekan. Xolislar ishtirokida yigitning yonidagi sumka tekshirilganda, 59 ta zip-paketga qadoqlangan jami 295 dona «pregobalin» nomli kuchli ta'sir qiluvchi dori vositasi borligi aniqlandi. Shuningdek, tezkor surishtiruv tadbirlari davomida mahalla hududidagi bir nechta joyga ko'mib qo'yilgan hamda lokatsiya orqali belgilab ketilgan ana shu turdagi dori vositalari ham topildi. Ular ashyoviy dalil sifatida olinib, belgilangan tartibda tegishli hujjatlar rasmiylashtirildi.

Jinoyat qidiruv bo'limi xodimlari tomonidan olib borilgan tezkor tadbirlar natijasida gumon qilinuvchining qochib ketgan sherigi Shayxontohur tumani hududida ushlandi. Uning yonida ham tarqatish uchun tayyorlab qo'yilgan 35 dona kuchli ta'sir qiluvchi kapsulalar borligi aniqlandi.

Aslida bunday kuchli ta'sir qiluvchi dori vositalarining noqonuniy muomalada bo'lishi jamiyat uchun o'ta jiddiy xavf hisoblanadi. Ular qanchadan-qancha insonlarning sog'lig'ini izdan chiqarishi, ayniqsa, yoshlar ongi va kelajagini zaharlab, ularni qaramlik domiga tortishi mumkin. Bu esa nafaqat bir inson, balki butun oila va jamiyat uchun og'ir fojiga aylanishi hech gap emas.

Bunday vositalarni nazoratsiz va noqonuniy iste'mol qilish inson organizmini asta-sekin yemirib, uning ruhiy va jismoniy holatini izdan chiqaradi. Eng achinarlisi,

bu hatto insonning umriga zomin bo'lishi ham mumkin.

Profilaktika inspektorining hushyorligi, o'z vazifasiga sidqidildan yondashuvi hamda murakkab vaziyatda to'g'ri va tezkor qaror qabul qilgani natijasida ushbu jinoiy faoliyatga o'z vaqtida chek qo'yildi. Eng muhimi, ko'plab yoshlarni giyohvandlik illatidan asrab qolishga erishildi. Kapitan Laziz Abdulkarimovning xizmati munosib baholanib, Ichki ishlar vaziri tomonidan unga muddatidan oldin «mayor» maxsus unvoni berildi.

Bilim, tajriba, ilmiy yondashuv va o'z vaqtida tezkor qaror qabul



qilish ichki ishlar organlari xodimlari, ayniqsa, mahalla profilaktika inspektorlari faoliyatida muhim omil hisoblanadi.

Hududlarda giyohvandlik vositalarining noqonuniy muomalasiga chek qo'yishga qaratilgan tezkor-profilaktik tadbirlar izchil davom ettirilmoqda.

**Adolat FAYZIYEVA,
o'z muxbirimiz.**

Toshkent shahri.

Mahalla tinch — yurt tinch

HAMJIHATLIK NATIJASI

Andijon tumani kabi aholi gavjum hududlarda ichki ishlar organlari va mahalla faollarining hamkorligi natijasida tumandagi 76 ta mahalla fuqarolar yig'inida olib borilayotgan tizimli ishlar zahirida inson qadri va xavfsizligi mujassamdir.



Suratda: «Ittifoq» MFY profilaktika inspektori, kapitan Abdullo Qodirov mahalla faollari bilan.

Joriy yilning o'tgan davri mobaynida hududda sodir etilgan 95 ta jinoyatning 98,9 foizi tezkorlik bilan fosh etildi. Bu raqam ortida qonun ustuvorligi va jinoyatga jazo muqarrarlari mujassam. Shuningdek, tergov va sud idoralari yashirinib yurgan 8 nafar kimsaning qo'lga olinishi hamda bedarak ketgan 2 nafar vatandoshimizning topilib, oilasi bag'riga qaytarilishi hududdagi sergaklikning natijasidir.

Tahlillarga nazar tashlasak, gohida jinoyatga o'zimiz sharoit yaratib berayotganimiz ayon bo'ladi. Masalan, qayd etilgan 9 ta o'g'irlik holatining negizida fuqarolarning o'z mulki-

ga bo'lgan beparvoligi yotibdi. Avtomashinalarni ko'chada nazoratsiz qoldirish, chorva mollarini yashash joyidan uzoqdagi dalalarda qarovsiz tashlab ketish, ayniqsa, tungi vaqtlardagi loqaydlik kimningdir halol mehnat bilan topgan mulkiga ko'z olaytirgan kimsalar uchun qulay fursat yaratmoqda. Mulk egasi o'z xavfsizligini o'zi ta'minlamas ekan, jinoyatchilikning oldini olish qiyin kechadi.

Oilaviy munosabatlardagi darzlar ham xavotirli. O'zaro kelishmovchiliklar tufayli kelib chiqqan nizolar oqibatida 4 ta holatda inson salomatligiga ta'sir qiluvchi tan jarohati yetkazilgan. Bunday

vaziyatlarda mahallaning ta'sir kuchi, oqsoqollar va xotin-qizlar faollarining murosaga chaqiruvchi ovozi har qachongidan ham muhimdir. Zero, ularning ishtirokida amalga oshirilgan har bir ish o'zining ijobiy samarasini bermoqda. Masalan, tumandagi «Ittifoq» mahalla fuqarolar yig'inida xavfsizlikni ta'minlashning zamonaviy usullari qo'llanilmoqda. Mahalladagi 4 ta asosiy ko'chaga 80 ta kuzatuv kamerasi o'rnatilishi natijasida 10 ming nafardan ziyod aholining osoyishtaligi muntazam nazorat ostiga olindi. Bu jinoyatchi uchun to'siq, tinch aholi uchun esa yuksak ishonch demakdir.

Shuni unutmaslik kerakki, jinoyatning ildizi ko'pincha moddiy yetishmovchilik va ishsizlikka borib taqaladi. Shu bois mahalla faollari bilan hamkorlikda aholi bandligini ta'minlashga ustuvor vazifa sifatida qaralyapti. Joriy yilning o'zida 25 nafar fuqaro doimiy ish joyi bilan ta'minlandi. To'g'ri, mahalla bugun «yashil» toifada, ammo bu xotirjamlikka berilish uchun asos bo'lolmaydi. Chunki hududda ichkilikka ruju qo'ygan sakkiz nafar shaxs, doimiy janjallashib turadigan 9 ta oila va jazoni ijro etish muassalaridan qaytgan 6 nafar fuqaro bor. Ular bilan yakka tartibda ishlash, moddiy va ma'naviy ko'mak berish, tibbiy xizmat ko'rsatish kundalik vazifadir.

– Maqsadimiz jinoyat sodir etilgandan keyin jazolash emas, balki uning kelib chiqish sabablarini avvaldan bartaraf etishdir, – deydi mahalla profilaktika inspektori, kapitan Abdullo Qodirov. – Shu bois har bir fuqaro bilan yuzma-yuz muloqot o'tkazib, ularning mavjud muammolari o'rganilmoqda. Mahalla faollari bilan hamkorlikda muammolarning ijobiy yechimini ta'minlash ishlari olib borilmoqda. Alohida e'tiborga molik oilalar va fuqarolar bilan kundalik shug'ullanish amaliyoti yo'lga qo'yilgan.

Xulosa o'rnida aytish mumkin, Andijon tumanida huquq-tartibot idoralari va jamoatchilikning bir tan-u bir jon bo'lib ishlashi tinchlikning eng mustahkam qalqonidir. Zero, osoyishtalik hukmron joydagina ertangi kunga ishonch va farovonlik bo'ladi.

Saminjon HUSANZODA,
o'z muxbirimiz.

Andijon viloyati.

Tanqid — kelajak mevasi

Xorijda



O'zimizda



Qutlov

HALOL MEHNATNING
QADRI

Hayotda shunday kasblar borki, ular ko'pincha ko'zga tashlanmaydi, lekin jamiyat uchun katta ahamiyatga ega.

Saida Rahimjonova har kuni erta tongda, hali ko'pchilik shirin uyquda bo'lgan paytda IIV huzuridagi Migratsiya va personallashtirish departamentiga yetib boradi. U tozalikni saqlash orqali odamlar uchun qulay muhit yaratadi. Qishning sovuq kunlarida ham, yozning jazirama issig'ida ham o'z ishini sidqidildan bajaradi. Zero, tozalik bor joyda baraka bo'ladi.

Lavhamiz qahramoni oilada mehribon ona. O'g'li, Abdug'affor uning mashaqqatli mehnatlarini ko'rib voyaga yetdi va halol mehnatning qadrini yaxshi bildi. Abdug'affor ayni paytda 18 yoshda, bu yil muddatli harbiy xizmatga boradi. Kelajakda IIV Akademiyasiga kirishni maqsad qilgan.

Saida Rahimjonova yurtimizda bayram shukhi kezib yurgan shu kunlarda 50 bahorni qarshi oldi.

— Ochig'i, bunday e'tiborni kutmagandim, hatto quvonchdan ko'zlarimga yosh keldi, — deydi Saida Rahimjonova. — Shunday jamoada ishlayotganimdan xursandman.

Uning so'zlarida samimiyat va soddalik yaqqol sezilib turardi. Saida opa uchun eng katta mukofot — bu mehnatining qadrlanishi, atrofidagi insonlarning mehri va hurmatidir. U har kuni o'z vazifasini vijdonan bajarib, jamoada tozalikni ta'minlash bilan birga, boshqalarga iliq kayfiyat ham ulashadi. Ko'pchilik e'tibor bermaydigan bu mehnat zahirida qanchadan-qancha sabr, mashaqqat va fidoiylilik mujassam. Darhaqiqat, Saida Rahimjonova kabi fidoi insonlar hamisha e'tirof va ehtiromga munosibdir.

Adolat FAYZIYEVA,
o'z muxbirimiz.

Dolzarb mavzu

XAVFLI ISHONCH

So'nggi paytlarda voyaga yetmaganlarning avtomobil boshqarish holatlari tez-tez uchramoqda. Bu asosan tungi vaqtda sodir bo'layotir: o'smirlar ota-onasi yoki tanishlarining mashinasini olib, yo'lga chiqishyapti. Mashina boshqarish huquqiga ega bo'lmagan o'smirlar uchun oddiy sayohat yoki sarguzashtdek tuyulgan bunday holatlar, afsuski, ko'pincha yo'l-transport hodisalari bilan nihoya topmoqda.

«SHUNCHAKI AYLANIB KELISH»
ISTAGI

Bunday holatlar odatda bir xil boshlanadi: ota-onalar uxlab yotadi, mashina kalitlari ko'zga ko'rinarli joyda turadi, do'stlar «shunchaki aylanib kelaylik» deb taklif qiladi. O'smir esa hammasi hech qanday oqibatlariz tugaydi, deb ishonadi. Negaki, u avtoullovni yuqori darajada xavfli vosita sifatida qabul qilmaydi. Aslida esa har qanday mashina taxminan bir-ikki tonna vaznga ega va katta tezlikda harakatlanganda odamlarning og'ir jarohat olishi yoki dunyodan ko'z yumishiga sabab bo'lishi mumkin.

Yana bir xavfli qarash mavjud: go'yo odam 18 yoshga to'lmagan bo'lsa, unga jiddiy jazo bo'lmaydi. Bu — noto'g'ri tushuncha. Hatto voyaga yetmaganlar ham yo'l-transport hodisalarining og'ir oqibatlari uchun javobgarlikka tortilishi mumkin. Avtohalokat sodir bo'lsa, nafaqat o'smirlarning o'zi, balki boshqa yo'l qatnashchilari ham jabr ko'radi.

NIMA UCHUN O'SMIR XAVFGA
BORADI?

Bu muammo faqat huquqiy emas, balki psixologik xususiyatga ham ega. Mashina boshqarayotgan o'smirlarning xatti-harakati ko'pincha yoshga xos xususiyatlar bilan bog'liq.

Avvalo, ko'plab yoshlarda «daxlsizlik illyuziyasi», ya'ni menga hech narsa qilmaydi, degan hissiyot mavjud. Bunda o'smir o'zini xavf-xatardan himoyalangan, omadli deb his qiladi. Xavf esa o'yin yoki o'zini sinab ko'rish usuli sifatida qabul qilinadi.

Ikkinchidan, o'smirlik davrida yangi his-tuyg'ularga intilish kuchayadi. Tezlik, tungi safarlar va qoidalarni buzish yoshlarga kuchli emotsiyalar manbaidek tuyuladi. Shuning uchun ko'plab xavfli qarorlar to'satdan, oqibatlar haqida jiddiy o'ylamasdan qabul qilinadi.

Do'stlarning ta'siri ham katta ahamiyatga ega. Mashinada tengdoshlar bo'lganda, «krutoy» ko'rinish istagi o'smirni xavfli harakatlarga undashi mumkin. Ba'zan «Tezroq hayda!» yoki «Nima, qo'rqaysanmi?» kabi birgina gap ham tezlikni oshirishga yoki qoidalarni buzishga sabab bo'ladi.

Yana bir muhim omil bor. Psixologik tadqiqotlarga ko'ra, inson miyasi to'liq shakllanishi odatda yigirma yoshlar o'rtalariga to'g'ri keladi. O'zini nazorat qilish, xavfni baholash va uzoq muddatli

rejalashtirish uchun javobgar bo'lgan miya qismlari o'smirlarda hali rivojlanish jarayonida bo'ladi. Shu bois «shunchaki aylanib kelish» qarori ko'pincha uning qanday oqibatlarga olib kelishi mumkinligini to'liq tushunmasdan qabul qilinadi.

Bunday safarlardan bittasi bir necha insonlarning hayotini o'zgartirib yuborishi mumkin. Avtohalokatlar natijasida piyodalar, yo'lovchilar va boshqa haydovchilar vafot etishi yoki og'ir jarohat olishi mumkin. Bulardan tashqari, oila uchun jiddiy huquqiy va moliyaviy oqibatlar ham kelib chiqadi. Eng og'iri esa, bunday holatlarda vaqtni orqaga qaytarib bo'lmaydi.

MUAMMO BOR, TAJRIBA VA
YECHIMLAR-CHI...

Bu muammoga qarshi kurash faqat jazo bilan emas, balki profilaktika orqali ham amalga oshirilishi kerak. O'smirlarda avtomobil boshqarish mas'uliyatini tushunishni shakllantirish muhim. Yoshlar haydovchilik — bu ko'ngilochar mashg'ulot emas, balki o'zining va atrofdagilarning xavfsizligi uchun katta javobgarlik ekanini anglashlari lozim.

Bu borada ota-onalar bilan ishlash ham katta ahamiyatga ega. Bolalarni nazorat qilish, yo'l harakati xavfsizligi haqida suhbatlar o'tkazish va kattalarning shaxsiy namunasi bunday holatlarning oldini olishga yordam beradi.

Shuningdek, o'smirlar va yoshlarga qaratilgan ta'lim dasturlari hamda axborot kampaniyalari samarali hisoblanadi. YTHda jabrlanganlar bilan uchrashuvlar, real avtohalokatlar haqidagi hikoyalar va xavfli qarorlar oqibatlarini muhokama qilish yoshlarga xavfni yaxshiroq anglashga yordam beradi.

Jahon tajribasi shuni ko'rsatadiki, o'smirlarning avtomashina boshqarish muammosini kompleks choralar orqali sezilarli darajada kamaytirish mumkin. Ko'plab mamlakatlarda avtomobil boshqarishga bosqichma-bosqich ruxsat berish tizimi amal qiladi. Yangi haydovchilar avval cheklangan huquqlarga ega bo'ladi va ma'lum shartlar asosida harakatlanadi, to'liq huquq esa tajriba to'plaganidan keyin beriladi.

Yosh haydovchilar uchun turli cheklovlar ham joriy etiladi. Masalan, tungi safarlarga taqiq yoki avtomobildagi yo'lovchilar soniga cheklov avariyaalarga sabab bo'ladigan omillarni kamaytirishga qaratilgan.

Yoshlar bilan tizimli ish olib borish ham juda muhim. Ko'plab mamlakatlarda yo'l harakati xavfsizligi bo'yicha darslar maktab dasturlariga kiritilgan, ijtimoiy kampaniyalar esa xavfli xatti-harakatlarning haqiqiy oqibatlarini tushuntirishga qaratilgan.

Asosiy xulosa oddiy: avtomobil — o'yinchoq yoki jasurlikni isbotlash vositasi emas. Rul ortidagi birgina o'ylamay qilingan qaror fojiga olib kelishi, ko'plab insonlarning taqdirini o'zgartirib yuborishi mumkin. Haqiqiy mas'uliyat esa yo'ldagi xavfsizlik har bir haydovchiga bog'liq ekanini anglashdan boshlanadi.

Muzifa SULTONOVA,
IIV JXD Axborot xizmati boshlig'i,
podpolkovnik.



O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Nukus «Temurbeklar maktabi» harbiy-akademik litseyiga 2026–2027-o'quv yili uchun nomzodlarni qabul qilish jarayonlari boshlandi

IIV Nukus «Temurbeklar maktabi» harbiy-akademik litseyiga joriy yilda ixtisoslashtirilgan maktab-internat va umumta'lim maktablarining 9-sinfini tamomlaganlik to'g'risidagi shahodatnomaga ega, sog'lig'ining holatiga ko'ra, o'qishga yaroqli deb topilgan hamda haqqoniy va shaffoflik tamoyillariga asoslangan saralash tanlovidan muvaffaqiyatli o'tgan, erkak jinsiga mansub O'zbekiston Respublikasining fuqarolari o'qishga qabul qilinadi.

O'qishga kirish istagini bildirgan nomzodlar o'zlarining doimiy yashash joyidagi hududiy ichki ishlar organlariga ta'lim yo'nalishini ko'rsatgan holda, 2026-yil 1-apreldan 30-aprelga qadar ariza bilan murojaat etishlari mumkin.

Qabul qilish jarayonlari 3 bosqichda (dastlabki tanlov, harbiy-kasbiy tanlov va yakuniy test sinovlari) o'tkaziladi.



Dastlabki tanlov tadbirlari hududiy ichki ishlar organlarida kichik komissiya tomonidan qabul yilining 1-may kunidan 30-may kuniga qadar quyidagi tartibda o'tkaziladi:

nomzodlar tomonidan taqdim etilgan hujjatlarni o'rganish;
yakka tartibda dastlabki suhbat o'tkazish;
nomzodlarning individual-psixologik xususiyatlarini o'rganish;
tibbiy komissiya ko'rigidan o'tkazish;
dastlabki tanlov yakuni bo'yicha nomzodlarning shaxsiy hujjatlar yig'ma jildini va tanlov natijalarini o'rganish hamda ularni harbiy-kasbiy tanlovga qo'yish masalasini hal etish.

Dastlabki tanlov tadbirlarida ishtirok etadigan nomzodlar soni cheklanmaydi.

Dastlabki tanlov tadbirlarini tashkil etish bo'yicha kichik komissiya harbiy-kasbiy tanlovda ishtirok etishga ruxsat berilgan nomzodlarning ro'yxatini hamda har bir nomzod bo'yicha shaxsiy yig'majildlarni qabul yilining 1-iyun kuniga qadar to'liq shakllantiradi va qabul komissiyasiga taqdim etadi.

Harbiy-kasbiy tanlovning tadbirlari quyidagilardan iborat:

taqdim qilingan nomzodga tegishli hujjatlar va uni tavsiflovchi ma'lumotlarni o'rganish;
nomzodlarni yakuniy tibbiy tekshiruvdan o'tkazish;

nomzodning savodxonlik darajasini (orfografiya va punktuatsiya bo'yicha) baholash;

nomzodlarning psixofiziologik xususiyatlarini o'rganish;

nomzodlarning jismoniy tayyorgarlik darajasini aniqlash;

nomzod bilan yakka tartibda yakuniy suhbat o'tkazish va nomzodlarni test sinovlariga qo'yish to'g'risida yakuniy qaror qabul qilish.

Harbiy-kasbiy tanlov tadbirlari tegishli qabul komissiyasi raisining buyrug'i bilan tasdiqlanadigan kichik komissiyalar tomonidan har yili 1-iyundan 25-iyun kuniga qadar o'tkaziladi.

Yakuniy test sinovlari O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Bilim va malakalarni baholash agentligi tomonidan o'tkaziladi.

Test sinovlari uch tilda – o'zbek, rus va qoraqalpoq tillarida o'tkaziladi.

Test topshiriqlari umumiy o'rta ta'limi fanlari (5–9-sinflari kesimida)ning Davlat ta'lim standartlariga muvofiq tuziladi.

МУНАЖЖИМЛАР БАШОРАТИ

(30 март – 5 апрель)

Қўй (21.03 – 20.04). Бу ҳафта сизга яхши кайфият ва руҳий кўтаринчилик ҳамроҳлик қилади. Иш жойингизда янги-янги ютуқ ва муваффақиятларга эришасиз. Асосийси, ўзингизга бўлган ишончни йўқотманг, ўз нуқтаи назарингизни ҳимоя қилишдан чўчиманг.

Бузоқ (21.04 – 20.05). Мазкур ҳафтада узоқдан хушхабар оласиз. Сешанба кuni кераксиз пул сарфидан ўзингизни асранг. Ҳафтанинг иккинчи ярмида ҳамкасблар билан низоли муносабатлар кузатилиши мумкин. Лекин бу борада оғирроқ бўлинг ва фақат шу орқали юзага келиши мумкин бўлган муаммонинг олдини олган бўласиз.

Эгизаклар (21.05 – 21.06). Бу даврда иммунитетингиз тушиб, соғлиқ билан боғлиқ муаммолар кузатилиши мумкин. Шунинг учун саломатлик профилактикаси, гигиена қоидалари доимо ёдингизда турсин. Шу кунларда оила аъзоларингиз ёки яқин кишиларга ёрдамнинг зарур бўлиб қолади.

Қисқичбақа (22.06 – 22.07). Молиявий ишларни йўлга қўйиш ва оилавий бюджетни қайта кўриб чиқиш вақти етди. Бу даврда даромадни орттириш учун ажойиб имкониятлар мавжуд бўлиб, фойдали ва омадли таклиф келиб тушиши мумкин. Ҳар қандай ишга қўл уришдан олдин ҳар бир ҳаракатни пухта ўйлаб кўриш лозимлигини унутманг.

Арслон (23.07 – 23.08). Давр билан ҳамнафас бўлиб, бор билимларни янгилари билан уйғунлаштиринг. Хизматдошлар учун умий манфаатларни кўзловчи инсонга айланинг. Жиззакилик ва таъсирчанликни унутинг, фақат шундагина муваффақиятга эришишингиз мумкин.

Паризод (24.08 – 23.09). Бу даврда юзага келадиган қулай вазиятлардан унумли фойдаланиб қолинг. Ҳафта бошида иш доирасида жим бўлиб кетиш ўз олдида қўйилган мақсадлардан воз кечиш, дегани эмас. Ўта муҳим деб ҳисоблаган ишларингизни ҳафтанинг иккинчи ярмига қолдирганингиз маъқул.

Тарози (24.09 – 23.10). Айрим кўнгилсизликларни ҳисобга олмаганда, ҳафта сиз учун жуда омадли кечади. Хизмат борасида кўпгина танишлар орттirasиз. Бу танишувлар сизга келажакдаги режаларингизни амалга оширишда жуда асқатади. Хонадонингизда хотиржамлик ҳукм суради.

Чаён (24.10 – 22.11). Келаётган ҳафта давомида эзгу мақсадларга эришиш йўлида ташаббускор ва фаол бўлишингизга тўғри келади. Бунинг учун сизда куч ҳам, имконият ҳам етарли, хоҳиш бўлса бас. Агар дўстлар ва яқинлар ёрдамида эҳтиёж сезсангиз, дарҳол улар билан хабарлашинг. Катта ишларни кўпчилик билан бамаслаҳат амалга оширган маъқул.

Ўқотар (23.11 – 21.12). Бу ҳафта ҳар қандай кўчиш ва сафар парвозларини амалга ошириш тавсия этилмайди. Яхшиси, уларни ортга суриб туринг. Сизга ҳозир ором ва хотиржамлик зарур. Жисмоний меҳнат жараҳатлар олиш ёки эски касалликларнинг зўрайиши билан якунланиши мумкин.

Тоғ эчкиси (22.12 – 20.01). Ишхонада сиздан камчилик топишга уринишлари мумкин, бироқ меҳнатсеварлик ортидан раҳбарият ва ҳамкасбларнинг фикрини ўзгартира оласиз. Бу ҳафта оила аъзолари, айниқса, фарзандларга нисбатан қаттиққўл бўлиш талаб этилади.

Қовға (21.01 – 19.02). Иш фаолияти давомида ўз нуқтаи назарингизни ҳимоя қилишдан чўчиманг. Ҳафта мобайнида барча ишларни тўғри тақсимланг. Атрофдагилар билан арзимас нарсалар сабабли тортишмасликка ҳаракат қилинг. Дам олиш кунлари дўстлар билан учрашинг.

Балиқ (20.02 – 20.03). Ҳафтанинг биринчи ярмида зиммангиздаги мажбуриятлар юки ортишига қарамай, барча музокаралар омадли кечади ва иш муносабатлари яхши йўлга қўйилади. Жума кuni ҳар жаҳда эҳтиёткорлик, синчковлик талаб этилади. Шунингдек, бу даврда ўз саломатлигингизга жиддий эътибор қаратишни унутманг. Дам олиш кунлари имкон қадар тиникиб ҳордиқ чиқаринг.



Буюк аллома Абу Али ибн Сино баҳор фаслидаги толиқишни енгиш учун турли донлар, кўкат ва гиёҳлар, мева-сабзавотлар ҳамда улардан тайёрланган таомларни истеъмол қилишни тавсия этган. Зеро, бундай маҳсулотлар таркибида организм фаолияти учун зарур витаминлар, оксиллар, эфир мойлари, темир, фосфор, кальций каби моддалар мавжуд.

* Бугдой кўкатидан тайёрланадиган, витамин ва минералларга бой сумалак кўкларнинг сеvimли ва шифобахш шоҳ таомларидан ҳисобланади. Унда организмга осон сингадиган, қон ва лимфа суюқликларига тез сўриладиган озукка моддалари бор.

* Сумалак қувватбахш хусусиятга эга бўлиб, қон таркибини яхшилашга ёрдам беради.

ТАНГА ДАРМОН ТАОМ

Халқимизнинг Наврўз байрами билан боғлиқ кўплаб урф-одат, анъана ва маросимлари мавжуд. Ана шундай қадриятларимиздан бири сумалак сайлидир. Сумалак қаҳратон қишдан чиққан инсонларга илик узилди пайти дармон бўлади.



* Мутахассислар фикрича, у меъёрда истеъмол қилинса меъда-ичак фаолиятини тартибга солиш, асабни тинчлантириш ва уйқуни яхшилашга кўмаклашиши мумкин.

* Сумалак ширин бўлса-да, ҳазми оғир таомлар қаторига киради. Ошқозонда муаммоси бор кишиларга уни меъёрдан ортиқ истеъмол қилиш тавсия этилмайди.

* Глютенга аллергияси борлар, қандли диабет билан оғирганлар ва оғир жарроҳлик амалиётини бошдан кечирган беморлар сумалакни эҳтиётлик билан ёки шифокор маслаҳатига кўра истеъмол қилишлари лозим.

* Педиатрлар уч ёшгача бўлган болаларга сумалак беришни тавсия этмайди. Беш ёшдан ошган болалар учун бир кунда 50 грамм

етарли. Томоқ оғриғи ёки ларингит билан оғриётган болаларга эса сумалак бермаган маъқул.

* Сумалакни сут ва сут маҳсулотлари билан бир вақтда истеъмол қилиш тавсия этилмайди.

* У юқори калорияли таом бўлгани боис, парҳез тутаяётганлар чекланган миқдорда истеъмол қилишлари керак.

* Яхши пишган сумалакни 6–7 кундан ортиқ сақлаш мумкин эмас. Кейинчалик унда микроблар кўпайиши ва заҳарланиш хавфи юзага келиши мумкин.

* Уни жуда иссиқ ёки муздек ҳолда истеъмол қилиш тўғри эмас. Ейишдан олдин хона ҳароратига келтириб олиш мақсадга мувофиқ.

* Сумалакни қоронғи ва салқин жойда сақлаш лозим. Идиш эса тоза, қуруқ ва ёғсиз бўлиши шарт.

Хулоса қилиб айтганда, сумалак — табиий ва фойдали баҳорий таом. Бироқ ҳар қандай маҳсулот каби, уни ҳам меъёрда ва тўғри истеъмол қилиш саломатлик гаровидир.

Дилором ЭРГАШЕВА,
ИИВ Марказий
поликлиникаси педиатри.
Адолат ФАЙЗИЕВА,
ўз мухбиримиз.

Здоровье

ВЕСЕННИЙ СНЕК-UP

Весной мы часто чувствуем себя «разряженной батареей». Но как понять: это обычная усталость или организму действительно не хватает ресурсов?

Усталость или дефицит?

Обычная усталость проходит после пары выходных и хорошего сна. Гиповитаминоз — это состояние, которое «не спит». Обратите внимание на «красные флажки»:

● кожа и волосы. Если кожа начала шелушиться, а волосы стали тусклыми и ломкими — это сигнал нехватки витаминов А и Е;



● десны и синяки. Кровоточивость десен при чистке зубов часто намекает на дефицит витамина С и рутина (витамина Р), отвечающего за прочность сосудов;

● настроение. Беспочинная апатия и раздражительность могут быть связаны с нехваткой витаминов группы В и магния.

Что искать в магазинах и на базарах

Не спешите скупать поливитамины в ярких баночках. Природа приготовила необходимое в самом доступном виде.

Кук-сомса, чучвара с зеленью — это не просто традиция, а лечебная

процедура. Молодой шпинат, листья клевера, мята богаты железом, фолиевой кислотой и хлорофиллом, которые борются с весенним авитаминозом.

Сумалек — «король» витаминов, главный весенний детокс-продукт. Пророщенная пшеница — концентрат аминокислот, витаминов группы В, Е и К. Пара ложек в день помогают восстановить нервную систему и «разбудить» иммунитет.

Классический чай с кристалликом навата и долькой лимона. Нават — это все же сахар в концентрированном виде, поэтому небольшого кусочка к чаепитию достаточно, чтобы взбодриться без лишней нагрузки на поджелудочную железу.

Горный мед и орехи. Если чувствуете апатию, замените сахар на ложку горного меда с грецким орехом. Это идеальное топливо для мозга и сердца.

Помните: правило весеннего оздоровления — умеренность.

Комил КУРБОНОВ,
зам. начальника поликлиники
Медицинского отдела ГУВД
Ташкентской области,
подполковник.



ПОЧЕМУ ПРОГУЛКИ В НЕПОГОДУ ПОЛЕЗНЫ?

Многие стараются остаться дома во время дождя. А зря, такая погода может быть даже полезнее.

Свежий влажный воздух

После дождя воздух становится чище: пыль и загрязнения оседают. Влажный прохладный воздух бодрит, облегчает дыхание и может положительно влиять на настроение. Многие отмечают, что после прогулки в дождливую погоду появляется ощущение свежести и ясности в голове.

Тренировка для сосудов и иммунитета

Умеренный холод — это мягкая закаливание. Организм учится адаптироваться к перепадам температуры, сосуды становятся более «тренированными», улучшается терморегуляция. При регулярных и разумных прогулках это может снизить восприимчивость к сезонным простудам.

Поддержка биологических ритмов

Даже в пасмурный день освещенность на улице намного выше, чем в помещении. Это важно для нормальной выработки мелатонина (гормона сна), поддержания циркадных ритмов, профилактики сезонной усталости.

Регулярный выход на улицу помогает лучше спать и чувствовать себя бодрее.

Движение в любую погоду

Физическая активность на свежем воздухе улучшает кровообращение, насыщает организм кислородом и снижает уровень стресса. Главное — умеренность и комфорт.

Прогулка принесет пользу, если: одежда соответствует погоде, обувь непромокаемая, вы не переохлаждаетесь. Начните с 15–20 минут и постепенно увеличивайте время.



Qilni qirq yorib

OYNA SINIG'IDAGI IZ

Bo'zatov tumani IIB Navbatchilik qismiga fuqarolarning biridan murojaat kelib tushdi. Jabrlanuvchi o'z arizasida noma'lum shaxs «Damas» rusumli avtomashinasi oynasini sindirib, ichidagi anchagina pullarni o'g'irlab ketganini bayon qilgan edi.



Voqea joyiga yetib kelgan tergov-tezkor guruhi a'zolari atrofdi diqqat bilan ko'zdan kechirib, dastlabki surishtiruv ishlarini boshlab yuborishdi. Aksiga olib, jinoyat sodir etilgan vaqtda yon-atrofdi biror-bir guvoh bo'lmagan, kuzatuv kameralari esa bu hududni qamrab olmagan edi. Bunday vaziyatda jinoyatchini topish imkonsizdek tuyuladi.

Biroq tuman IIB EKG katta eksperti, katta leytenant Qoblan Jalg'asbayev uchun har bir tafsilot muhim edi.

U hodisa joyida sochilib yotgan avtomashina oynasi siniqlarini sinchiklab o'rgana boshladi. Katta leytenantning sinchkovligi o'z samarasini berdi. Singan oyna bo'laklaridan birida qo'l-barmoq izi topildi.

Katta ekspert kriminalistik vositalar yordamida ushbu izdan avaylab nusxa ko'chirib oldi va zudlik bilan IIV Ekspert-kriminalistika markaziga tahlil uchun yubordi. Ko'p o'tmay, ushbu barmoq izi kimga tegishli ekanligi aniqlandi va u gumon qilinuvchi tariqasida qo'lga olindi.

A.B avvaliga aybini mutlaqo inkor etib, voqea umuman aloqasi yo'qligini isbotlashga urindi. Ammo ekspert tomonidan taqdim etilgan rad qilib bo'lmas dalil — oyna sinig'idagi barmoq izi uning uydirmalarini chippakka chiqardi. Asosli dalillar qarshisida ojiz qolgan shaxs nihoyat qilmishiga iqror bo'ldi va pushaymonlik bildirdi. Ekspertning kasbiy mahorati tufayli navbatdagi jinoyat «issiq izida» fosh etildi.

— Katta leytenant Qoblan Jalg'asbayev o'z vazifasiga mas'uliyat bilan yondashishi tufayli yaxshi natijalarga erishib kelyapti. Zero, har qanday sohaning rivoji birinchi galda malakali mutaxassis-larga bog'liq, — deydi tuman IIB boshlig'i, polkovnik Umida Kurbanbayeva.

Lavhamiz qahramoni yosh bo'lishiga qaramasdan, qator jinoyatlarni ochishga munosib hissa qo'shib kelmoqda. U o'tgan yilda 20 martadan ortiq hodisa joyiga chiqib, ashyoviy dalillarni to'plashga erishdi. Buning natijasida 2 nafar shaxsi noma'lum murdaning shaxsiga aniqlik kiritildi, 1 ta o'g'rilik holati fosh etildi. Joriy yilda 10 martadan ortiq voqea joyiga chiqib, xulosalar berdi. Buning natijasida 2 ta o'g'rilik jinoyati fosh etildi.

Azamat PIRNIYAZOV,
o'z muxbirimiz.

Qoraqalpog'iston Respublikasi.

Qo'riqlash xizmati

QING'IR ISHNING QIYIG'I

Yarim kechasi. Ayrim g'araz niyatli kimsalar ko'pchilik orom olayotgan bunday paytni o'zlarining qing'ir rejalarini amalga oshirish uchun qulay fursat deb biladi.

2002-yilda tug'ilgan, Navbahor tumanida yashovchi yigit ham tun pardasi ostida ana shu niyatda ko'cha kezardi. U bir nechta do'konni ko'z ostiga olib qo'ygan edi. Ulardan ba'zilarining eshigini ochishga urindi, ammo buning uddasidan chiqolmadi. Navbatdagi do'konning ham eshigini ocholmagach, tuynuk orqali ichkariga kiradi. Kuzatuv kameralarida muhrlanib qolgan tasvirlar kun kelib tilga kirmasligi uchun ularni ishdan chiqarishga harakat qiladi.

Xayriyatki, shovvozning urinishlari behuda ketdi. Navoiy viloyati IIB huzuridagi Qo'riqlash xizmati muhofazasida bo'lgan mazkur do'kondan monitoring markaziga kelib tushgan tash-



vish xabari sababli tezkor guruh qisqa vaqt ichida voqea joyiga yetib keldi. Xodimlar shu zahotiyq uni jinoyat ustida qo'lga olishdi.

Qing'ir niyat bilan boshlangan ishning oxiri hamisha «voy» bo'ladi. Endi yigit qilmishlari uchun

qonun oldida javob berishga majbur. Yuqoridagi holat esa fuqarolar mol-mulking xavfsizligi ishonchli qo'llarda ekanligini yana bir karra isbotladi.

Mahliyo XOLOVA,
o'z muxbirimiz.

Navoiy viloyati.

Tergov amaliyotidan

BILIB BOSDI TIKANNI

Urganch shahrining «Mash'al» mahallasi. Odatdagi sokin oqshomlardan biri. Mahalla ko'chalarida kundalik hayot davom etar, har kim o'z yumushi bilan band. Rixsiboy (ismlar o'zgartirildi) ham «Damas»ini uyining oldiga qo'yib, ichkariga kirib ketdi.



Bu vaqtda yon-atrofga olazarak boqayotgan Akrom ayni shu qulay fursatni kutayotgan edi. Hech kim yo'qligiga ishonch hosil qilgach, avtomashina yoniga yaqinlashdi. Mashina eshigini ochib, u yerda bo'lgan 25 million so'm pulni oldi va bir zumda ko'zdan yo'qoldi.

Oradan ko'p o'tmay, holat yuzasidan ichki ishlar organlariga xabar berildi. Holat bo'yicha jinoyat ishi qo'zg'atildi. Mazkur jinoyat ishi Urganch shahar IIOFMB huzuridagi tergov bo'limi tergovchisi, katta leytenant Azamat Matnazarovga topshirildi.

U voqea joyini sinchkovlik bilan ko'zdan kechirdi. Har bir iz e'tiboridan chetda qolmadi. Guvohlarning ko'rsatmalarini o'rgandi, barcha holatlarni tahlil qildi. Olib borilgan tergov harakatlari natijasida jinoyat tafsilotlari aniqlanib, gumonlar Akromga borib taqaldi. Ko'p o'tmay, uning qilmishi fosh etildi.

Aniqlanishicha, u ilgari ham o'g'rilik jinoyatlari uchun sudlangan bo'lib, oxirgi marotaba 2021-yilda Jinoyat ishlari bo'yicha Shovot tumani sudining hukmi bilan 7 yil muddatga ozodlikdan mahrum etilgan edi. Tergov jarayonida uning qilmishi to'liq isbotini topdi.

Katta leytenant Azamat Matnazarov IIV Akademiyasida tahsil olib, huquqiy bilim va tergov metodikasi bo'yicha mustahkam poydevor yaratdi. 2022-yilda u Xorazm viloyati IIB tizimida xizmat qilib, lavozimga tayinlanguncha ish jarayonlarini o'rganib, tajriba orttirdi. O'tgan yildan e'tiboran hozirgi lavozimida xizmat qilmoqda.

Nilufar JABBOROVA,
o'z muxbirimiz.

Xorazm viloyati.

Toshkent shahar IIBB rahbariyati, shaxsiy tarkibi va Faxriylar kengashi Bosh boshqarmaning Ma'naviy-ma'rifiy va kadrlar bilan ta'minlash xizmati boshlig'i o'rinbosari, podpolkovnik Umidilla Abdullayevga onasi

Mavjuda ABDULLAYEVANing vafot etganligi munosabati bilan chuqur hamdardlik bildiradilar.



KELAJAKKA G'AMXO'RLIK



Elning yuzi bo'lib quvonib-kulib,
Bugungi yosh avlod yurtini bezadi.
Vatan ovozasin taratmoq uchun,
O'zbekim yoshlari dunyo kezadi!

Bir ishni tutdimi, qo'ymaydi sira,
Ushlagan joyini shartta uzadi!
Ko'zida mehr bor, so'zida shira,
O'zbekim yoshlari dunyo kezadi!

Qayerda bo'lmasin olqish ostida
Millat sharafigini ipdek tizadi.
Qo'lni qo'lga berib do'stlik qasdidan,
O'zbekim yoshlari dunyo kezadi!

Kelajak yo'lida orzular bisyor,
Niyat ulug' erur, o'y pokizadir.
O, yurtim, sha'ningga sharaflar, deya
O'zbekim yoshlari dunyo kezadir!

Azim SUYUN,
O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan
madaniyat xodimi.



MUASSIS:
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI ICHKI ISHLAR VAZIRLIGI

Bosh muharrir
polkovnik
Bernora SADIKOVA

Bosh muharrir
o'rinbosarlari
podpolkovnik
Azizjon FAYZIYEV
mayor
Aziza BOHODIROVA

Mas'ul muharrir
Erkin SATTOROV

Veb-dizaynerlar
Zokir BOLTAYEV
Ilhom JUMANOV
Akbar BOLTAYEV

Navbatchilar
Temir QURBON
Yulya KIM

TELEFONLAR:
71-231-33-88;

Obuna masalalari
bo'yicha:
71-231-38-74;
97-420-89-24

Web-site: www.postda.uz
E-mail: info@postda.uz

ISSN 2010-5355



Tahririyat hisob raqami h/r
23402000300100001010.
Bank kodi 00014.

O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va
moliya vazirligi g'aznachiligi.

Shaxsiy h/v
460010860262877031101179003
STIR 200637499.

Gazeta O'zbekiston matbuot va
axborot agentligi tomonidan
2020-yil 13-yanvarda 0120-raqam
bilan ro'yxatga olingan.

Manzilimiz: 100070, Toshkent shahri,
Shota Rustaveli 1-berk ko'chasi 9-uy.

Buyurtma № 813.
Bosilish – ofset usulida.
Bichimi – A3.
Hajmi – 6 bosma taboq.
50323 nusxada chop etildi.

Obuna raqamlari:
Yakka tartibda – 180.
Tashkilotlar uchun – 366.
Bosishga topshirish vaqti – 22.00.
Bosishga topshirildi – 21.00.
Sotuvda kelishilgan narxda.

«Kolorpak» MCHJ bosmaxonasida
chop etildi.

Korxona manzili: 100206
Yunusobod tumani,
Yangishahar ko'chasi 1^A-uy.